

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Jamolhonov Hasanboy

Sapaev Qalandar

IMLO MUAMMOLARI

Ta'lim yo'nalishi : 5141100 – “ O'zbek tili va adabiyoti ”dan o'quv qo'llanma

TOSHKENT - 2007

ANNOTATSIYA

Mazkur o'quv qo'llanma o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi o'quv rejasidagi «Imlo muammolari» tanlov fani dasturiga muvofiq tayyorlandi. Unda quyidagi masalalar qamrab olindi: 1) fanning predmeti, maqsadi va vazifalari; 2) hozirgi o'zbek adabiy tili shakllanishining ilk bosqichidan bugunga qadar amalga oshirilgan alifbo va imlo islohotlari, bu jarayonda munozara predmeti bo'lib kelgan masalalar; 3) hozirgi ikkiyozuvlilik (kirillg'o'zbek va loting'o'zbek yozuvlari) sharoitida yuzaga kelayotgan yangi muammolar, ularga munosabat masalalari.

*

* *

V posobii osveo'enq vse temq kursa “ Problemq orfograf' fii ” . V nem izlojenq: a) tsel i zadachi dannogo kursa; b) istoriya reform alfavitov i orfografiy; v) spornqe voprosq grafiki i orfografii, kotorqe imeli mesto na protyajenii vsego HH veka; g) prichinq, privedshie k funktsionirovaniyu v Uzbekistane dvuh graficheskikh sistem, osnovannqh na kirillitse i latinitse; d) sravnitel'naya harakteristika ztih dvuh sistem, a takje ih pravil pravopisaniya.

V posobii osoboe vnimanie udeleno voprosu formirovaniya u studentov tvorcheskogo podhoda k resheniyu teh ili inqh problem, kotorqe, kak uje otmechalos, prodoljayut imet mesto v nashey pedagogicheskoy deyatelnosti.

*

* *

Annotation

All the themes of the course “Problems of orthography” were interpreted in the textbook. There were stated following on it: a) aim and tasks of the course; b) history of reforms of the alphabets and orthography; c) arguable points of graphics and orthography which took place for a period of the whole of the XX century; d) causes of putting in functioning of two graphic systems in Uzbekistan based on

Cyrillic and Roman writings; e) comparative characteristics of these two systems and also their orthographical rules.

In the textbook there was given special attention to problem of formation students' creative approach to the solution of some or another problems which have been already marked and are still going on to take place in our teaching activity.

T a q r i z c h i l a r : S. Sultonsaidova ,

O'zbekiston Jahon tillari
universiteti dotsenti ,
filologiya fanlari nomzodi .

Saparniyozova Muyassar ,

Nizomiy nomidagi TDPU o'zbek
tilshunosligi kafedrasi katta
o'qituvchisi , filologiya fanlari
nomzodi .

SO'Z BOSHI

Adabiy til, ma'lumki, ikki formada – og'zaki va yozma shakllarda halqqa xizmat qiladi. Ularning ikkalasi fikrni ifodalaydi, biroq bu vazifani bajarishda og'zaki shakl talaffuz va zshitishga, yozma shakl esa yozishga, ko'rishga va o'qishga asoslanadi, chunki ulardan birining ifoda jihatini fizikg'akustik omillar, ikkinchisining ifoda jihatini esa optikg'grafik belgilar tashkil qiladi. Og'zaki shakl yozma shaklga nisbatan birlamchidir, chunki u yozma shakl paydo bo'lmasdan oldin ham mavjud edi, yozma shakl esa keyin paydo bo'lgan. Shu bois u tilning og'zaki shakliga nisbatan ikkilamchi hodisa sanaladi, shunga qaramay yozma nutqning bir qator afzal jihatlari ham bor: u nutqning uzoq vaqt saqlanishini va uzoq masofalarga etib borishini ta'minlaydi (og'zaki nutq esa bir paytda so'zlovchi va tinglovchi ishtirokida sodir bo'ladi). Yozma nutq insoniyatning o'tmishdagi ma'naviyg'ma'rifiy va ilmiy boyliklarini, jamiyatdagi progressiv g'oyalarini avlodlarga etkazib beradi, demak, ijtimoiy taraqqiyot sur'atini tezlashtirishga ham ijobiy ta'sir o'tkazadi, shuning uchun taniqli tilshunos olim L.R. Zinder uni inson tafakkurining buyuk kashfiyoti deb baholaydi. Bunday kashfiyotning strukturaviyg'funktSIONAL jihatlari mahsus o'rganish, uning tuzilishiga, til bilan aloqasiga oid muammolardan habardor bo'lish talabalarning kasb mahoratini ko'tarishda, bilimlarini yanada mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Imlo muammolarining tanlov fani sifatida o'quv rejasidan o'rin olishida masalaning ana shu jihatlari ham hisobga olingan.

Mazkur qo'llanmaning yaratilishida hozirgi o'zbek adabiy tili taraqqiyotining ilk bosqichidan (HH asrning birinchi choragidan) hozirga qadar amalga oshirilgan alifbo va imlo islohotlari materiallaridan unumli foydalanildi, bunday islohotlar oralig'ida turli bahsg'munozaralarga sabab bo'lgan muammolar bilan, ularni hal qzish jarayonida ishtirok qzgan shahslarning nomlari bilan talabalarni tanishtirishga harakat qilindi, zero, bunday shahslarning nomlarini tiklash, ulardan jamoatchilikni habardor qilish barchamizning insoniy burchimizdir.

Qo'llanmaning bo'limlari mualliflar o'rtasida quyidagicha taqsimlandi:

H. Jamolhonov: «Imlo muammolari» fanining predmeti, maqsadi va vazifalari», «Hozirgi o'zbek adabiy tili taraqqiyotining ilk bosqichida alifbo va imlo muammolari», «1930g'1940 yillarda alifbo va imlo muammolari», «1940g'1995 yillarda alifbo va imlo muammolari».

Q. Sapaev: «Soʻz boshi», « Rus va lotin alifbolariga asoslangan oʻzbek yozuvlarining qiyosiy tavsifi », «Grafika», «Har ikki yozuv grafik tizimlarining qiyosiy tavsifi», «Orfografiya»,«Imlo qoidalar», «Har ikki yozuvning imlo qoidalaridagi tafovutlar» ,«Adabiyotlar roʻyhati».

«IMLO MUAMMOLARI» TANLOV FANINING PREDMETI, MAQSADI, VAZIFALARI

Predmeti g' oʻzbek yozuvlari grafikasi va orfografiyasidagi muammolar.

Maqsadi g'hozirgi oʻzbek adabiy tilining yozuv tizimlarida, hususan, grafikasi va imlosida shu vaqtgacha yuzaga kelgan turli muammoli holatlar bilan talabalarni tanishtirish, ularda imlodagi munozarali masalalarga ijodiy munosabat koʻnikmalarini shakllantirish.

Vazifalari: a) HH asrning birinchi choragidan (hozirgi oʻzbek adabiy tilining shakllanishidagi ilk bosqichdan) to XXI asr boshigacha boʻlgan davrda mamlakatimizda amalga oshirilgan yozuv islohotlari hususida talabalarga obzorg'ma'lumot berish; b) hozirgi ikkiyozuvlilikka olib kelgan ijtimoiyg'tarihiy omillarni, amalda qoʻllanib turgan rusg'oʻzbek va loting'oʻzbek yozuvlari grafikasini qiyosan oʻrganish; v) bu ikki yozuv grafikasi va imlosidagi oʻziga hos jihatlarni, munozarali holatlarni aniqlash, shu orqali talabalarni yozuv amaliyotiga tayyorlash.

HOZIRGI OʻZBEK ADABIY TILI TARAQQIYOTINING ILK BOSQICHIDA (HH asrning birinchi choragida) ALIFBO VA IMLO MUAMMOLARI

Oʻzbek yozuvining HH asr tarihi murakkab jarayonlarga boy boʻldi: bu asrda yozuv uch marta tub isloh qilindi – bir grafik tizimdan boshqa grafik tizimga koʻchirildi. Jahon halqlarining yozuv tarixida bunday hodisa kamdang'kam uchraydi.

Mavjud manbalar va hujjatlar tahlilidan shu narsa ma'lum boʻladiki, oʻzbek yozuvining HH asr tarihi toʻrt davrni oʻz ichiga oladi:

1g'davr – arab grafikasiga asoslangan yillar (1900g'1929).

2g'davr – lotin grafikasiga asoslangan yillar (1929g'1940).

3g'davr – rus grafikasiga (kirillitsaga) asoslangan yillar (1940g'1993).

4g'davr – ikkiyozuvlilikka (rusg'o'zbek va loting'o'zbek alifbolariga) asoslangan yillar (1993g'2010)

Birinchi davrning 1916g'1917 yillargacha bo'lgan bosqichida yozuvni isloh qilishga qaratilgan jiddiy harakatlar kuzatilmaydi. Bu bosqichda asosiy z'tibor yangi usulda ta'lim berishga asoslangan maktablarni tashkil ztishga, ularda diniy darslar bilan birga dunyoviy ilmlarni ham o'qitishga, shu orqali halq ommasini ma'rifatli qilishga qaratiladi. Bu jarayonni, tabiiyki, yangi mazmundagi o'quvg'uslubiy qo'llanmalarsiz tasavvur qilib bo'lmas zdi. Ayni shu zhtiyoj bir qator yangi kitoblarning yaratilishiga olib keladi: «Ustodi avval» (Saidrasul Saidazizov. Toshkent – 1900, 1902), «Adibi avval» (Munavvarqori Abdurashidhonov. Toshkent g' 1907), «Adibi soniy» (Munavvarqori Abdurashidhonov. Toshkent g' 1907), «Kitob ulg'atfol» g' «Bolalar uchun kitob» (Mahmudho'ja Behbudiy. Samarqand – 1908, 1914), «Birinchi muallim» (Abdulla Avloniy. Toshkent g' 1911), «Ikkinchi muallim» (Abdulla Avloniy. Toshkent g' 1912), «Turkcha qoida» (Fahriddinov Muhammadamin. Toshkent g' 1913), «Savod» (Hevalik muallim Muhtor Bakr. Qozon g' 1913), «Ta'limi avval» (Rustambek Yusuf o'g'li. Toshkent – 1912, 1914), «Turkiy alifbe» (Muhammadhon Abdulholiq o'g'li. Qo'qon g' 1916), «Rahbari soniy» (Abdullaho'ja Saidmuhammadho'jaev, 1916), «Birinchi yil» (Saidrizo Alizoda. Samarqand g' 1917), «Rahbari avval» (Fahriddinov Muhammadamin. Toshkent g' 1917) kabi kitoblar shular jumlasidandir. Bunday kitoblarda yozuvni isloh qilish masalalarini ko'rish maqsad qilinmagan bo'lsag'da, ularni (kitoblarni) yaratish, shular asosida savod chiqarish, to'g'ri yozish va to'g'ri o'qish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida imlo qoidalarini mukammallashtirish, alifboni o'bek tili hususiyatlariga moslashtirish, tinish belgilari tizimini va qoidalarini shakllantirish zarurati borligi sezila borgan, bunday zarurat sezgisi zsa, o'ylaymizki, yozuv islohotiga jiddiy zamin hozirlagan. Buni qo'qonlik ma'rifatchi Ashurali Zohiriyning quyidagi gaplari ham isbotlaydi. U o'zining 1916 yilda nashr zttirgan «Imlo» darsligida bu haqda shunday deydi: «... Bizning hozirgi (zski) imlomizda qoida degan narsa aslo rioya ztilmag'onligidan har kim o'zicha qanday yozmoqni hohlasa, o'shanday yoza berg'on; bu adabiyotimizning kengayishiga sad bo'lib, yoshlarimizning qiynalishidan boshqa ajnabiy millatlarning qoshida tilimizning mashara qildirib, madaniy tillarga baho qo'yg'onda, qimmatini hech bo'lishiga sabab

bo'ldik. Shunga binoan bul «Imlo» risolasini yozdim. Zng zarur qoidalarini darj ztdim... «hoye rasmiya»ni imlomizg'g'a kirg'izdim...»

1919 yilda Toshkentda Fitrat boshchiligida tilg'imlo va adabiyot masalalari bilan shug'ullanuvchi to'garakg'seminar – «Chig'atoy gurungi» jamiyati tashkil topadi. Bu haqda «Ishtirokiyun» gazetasi shunday yozgan zdi: «Toshkentda yosh buhoroliklarning faol a'zolaridan Fitrat afandi ila o'zbek yoshlari tarafidan «Chig'atoy gurungi» nom(li) yangi bir jamiyat tuzilgan. Milliy ishlar komissariati tarafidan tasdiq ztilib ishka kirishkan.

Bu jamiyatning maqsadi: Turkistondagi zski va yangi turkiy asarlarni jam qilib, turkiy tilini ihyo qiluv haqinda materiyol hozirlamoq, lug'at va adabiyot dunyosin boyitmoqdir»

«Chig'atoy gurungi» jamiyati faoliyatida alifbo va imlo masalalari alohida o'rin tutadi. Bunga quyidagi omillar sabab bo'lgan: 1) zski o'zbek tilidagi 8g'9, yangi o'zbek tilidagi 6g'7 unli fonema faqat 3 ta harfg' ? (alif), ? (vov), ? (yo) bilan ifodalangan; 2) ayrim harflar polifonemali grafema tarzida qo'llangan: ? (vov) harfi «v» undoshini va «u», «o'» unlilarini (demak, uchta fonemani), ? (yo) harfi ham uchta fonemani – «i», «z (e)» unlilarini va «y» undoshini ifodalagan ; 3) «t» undoshi uchun ikki harf g' ? (te), ? (to) ; «s» undoshi uchun uchta harf g' ? (se), ? (sin), ? (sod) ; «z» undoshi uchun zsa to'rtta harf g' ? (zol), ? (ze), ? (zod), ? (zo) qo'llangan ; 4) har bir harfning to'rt hil shakli – so'z boshida, o'rtasida, ohirida yoki yolg'iz holda qo'llanadigan allograflari bo'lgan. Bunday holat maorifg'ta'lim ishlarida va yozuv amaliyotida qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirgan, ravon o'qish ko'nikmalarining shakllantirilishiga halaqit bergan. «Chig'atoy gurungi» jamiyati ayni shu qiyinchiliklarni hisobga olib, alifbo va imlo muammolari bilan shug'ullnishga majbur bo'lgan: jamiyatning «Imlo to'dasi» a'zosi Zlbek tomonidan «Bitik yo'llari» kitobchasi yaratiladi, unda arab yozuvini o'zbek tili tovushlari tizimiga moslashtirish lozimligi aytiladi, shu maqsadda alifboga ?? («u» unlisi uchun), ?? («o'» unlisi uchun), ? («o» unlisi uchun), ? («a» unlisi uchun), ? («i» unlisi uchun), ? («z» unlisi uchun) harflarini kiritish tavsiya ztiladi. «Chig'atoy gurungi» imlo to'dasining bu takliflariga munosabat ham har hil bo'lgan. Masalan, qo'qonlik o'qituvchi Ashurali Zohiriy bu haqda shunday degan zdi: «Imlo to'dasi tomonidan ba'zi narsalar maydonga chiqarilar zkan, biz uni bir to'daniki deb taniymiz... Shuning uchun undoq «to'dalar» tarafidan chiqarilg'on narsalar hususiy bir fikrgina bo'lib, butun o'lka uchun «Umumiy qoida» bo'la olmaydi. O'lka Maorif sho'rosi Turkiston o'lkasidagi atoqli muallim va imlo mutahassislaridan tajribaliklarini chaqirib,

Toshkentdak bir erga yig'sa, ular maslahatlashib, muhokamalashib bir ish ishlab chiqarsa, shundagina «umumiy qoida» bo'ladi.

«Imlo to'dasi» «??»ni «???», «??»ni «???», «???»ni «????», «???»ni «????» nushalarida yozgan. Holbuki, tilimizga oralashg'on arabiy, forsiy kalimalar o'z imlolarida yozilmog'i lozim».

1919 yilning 26 dekabrda Rossiyada savodsizlikni tugatish to'g'risida Dekret z'lon qilindi. Turksiton o'sha yillarda Rossiyaning Muhtor Respublikasi bo'lganligini hisobga olsak, bu Dekretning O'zbekistonga ham dahldor zkanligi ma'lum bo'ladi. Demak, 1919 yilda va undan keyingi davrlarda til va imlo masalalarining faollashuvida bu hujjatning ham o'ziga yarasha o'rni bo'lgan.

1920 yilning 18 sentyabrda Zlbek (Mashriq Yunusov)ning «Imlo masalasi» nomli maqolasi matbuotda z'lon qilinadi. Maqolada imlo masalasi ko'pdan buyon muhokama ztilayotgan bo'lishiga qaramay, hamon hal ztilmay qolayotganligi aytiladi va shunday deyiladi: «Qaysi birlari chig'atoy gurungi tomonidan yosolg'on imloni qabul qilib, oning yo'li bilan ketdilar, qaysi birlari zsa ul imloning o'zigada va chiqaruvchilarigada qarshi ketib, o'zlarining ilgarigi tutg'on yo'llarida qolaveradilar. Zng so'ng ichki Russiyada bo'lg'on imlo o'zgarishin ko'rgach, olarning qaysilari seking'sekin chig'atoy imlosining tuvaragiga yig'ildilar. Ham shul imloda yozaturg'on bo'ldilar. Belgili, ish buning bilan bitmas zdi, zero zamon yuksalu zamoni; bu kungi ish zrtaga zskirib, ishdan chiqib qoladir. Ong'a etmoqni istovchilar uchun albatta yangilikning ketidan ketudan boshqa chora yo'kdur... Zski imlo atag'on imlomiz burun choqlardan beri bir yo'sunsiz, negizsiz yozilib kelmakda bo'lg'on bir imlodurkim, buning bilan bir narsani ochiq onglov juda qiyindir. Chunki bir so'zni bir necha turli o'qimoq mumkin bo'lg'onlikdan kishi ko'b yanglishadir... Demak, zski imlo yo'lsizligi uchun tashlanmoqdan boshqa chora qolmaydir. Zmdi chig'atoy imlosi atalg'on yangi imlog'a kelsak, bu imlo zski imlodan oyrularli olti cho'zgini qabul ztu, ularni qalin, ingichkalikka bo'lub yozuvda alif (?) o'rnida hamza (?) ishlatu bilandir. Har holda bu imlo zski imlodan ko'b yuqori tutilsada, buning kamchiliklarin va yanglishlarin ko'rgach oningda tuzatilib yo'lg'a solinmog'i lozim keladur...» Shundan so'ng muallif chig'atoy gurungi imlosidagi ayrim holatlarga ham z'tiroz bildiradi: harflarning ikki guruhga – yot harflar (arabcha, forsha so'zlarda ishlatiladigan ?, ?, ?, ?, ?, ?, ?, ? harflari) va o'zimizniki bo'lgan harflarga (?, ? harflariga) ajratilishini ma'qullamaydi, arab, fors va rus so'zlarida birinchi guruh harflarini, qolgan holatlarda zsa ikkinchi guruh harflarini qo'llash haqidagi qoidalar kattalar uchun qiyin bo'lganidek, yosh bolalar uchun ham juda

qiyin bo'lishini aytadi: «go'yo ularning tutqon qoidalarida yozmoq uchun yosh bolalarning ham turkcha, arabcha, forsha so'zlarni oyraturg'on bo'lmoqlari kerak bo'ladur. O'zbek tilini yahshi anglamagan yosh bolalar uchun bu yo'lning qiyin zkanligi o'zg'o'zidan anglashilib turadir. Shuning uchun to'g'ridang'to'g'ri yot harf degan shul to'qqiz harflarni butunlay oradan chiqarib, qo'noqlarga ham turkcha kiyim kiyintiru va olarg'a turkcha odat (qiliq)larni tushuntiru kerakdir. Bu choqda bizning imlodagi yo'l bir daraja qulaylashqon bo'ladur», g' deydi u o'z maqolasida.

Maqolada yozuv va imlo qoidalarining pedagogik hamda psihologik jihatlariga – ravon o'qish ko'nikmalarining shakllantirilishi uchun qoidalarning izchil bo'lishiga hamda o'quvchilarning yosh hususiyatlariga alohida z'tibor berilganligining guvohi bo'lamiz. Bu hol Zlbekning imlo masalasiga ancha to'g'ri va jiddiy yondasha olganligidan dalolat beradi.

1920 yilning 19 sentyabrida Zlbekning «Imlo masalasi» nomli ikkinchi maqolasi (aniqrog'i, birinchi maqolaning davomi) chop ztiladi. Unda, asosan, cho'zg'ilarga (unli tovushlarga) grafik belgi tayinlash masalasi hususida fikr yuritiladi, «bu masala yangichilar bilan zskichilar orasida tortishilgan hamza (?), alif (?) masalalaridan ham kerak bo'lganligi uchun bu nuqtada har bir kimsaning uzoq o'ylab, ishka kirishuvi kerak...» zkanligi ta'kidlanadi, nihoyat «Chig'atoy gurungi» tomonidan tuzilgan qoida juda o'rinli deb topiladi, faqat arabcha, forsha so'zlar imlosining bu qoidadan chetda qoldirilganligiga z'tiroz bildiriladi: «Biroq, shunisida borkim, bu erda tuzilgan imlo qoidasi yolg'iz turkcha so'zlar uchun bo'lib, arabcha, forsha so'zlar mundan tashqari aytilmishdir. Yahshisi, bu qoidanida yalpi (umumiy) qilmoq kerak zdi, chunki bolalar shul qoidani o'rgangach albatta shul yo'lda yoza boshlarlar...», g' deydi maqola muallifi.

1920 yilning 27 noyabrida Zlbekning yana bir maqolasi matbuotda z'lon qilinadi. Maqolada Turkiston o'zbeklarining tili va imlosi masalalarini ko'rish maqsadida shu yilning dekabr oyida qurultoy chaqirilishi rejalashtirilganligi aytilib, unga Turkiston o'zbeklari alohida tayyorgarlik bilan kelishlari lozimligi uqtiriladi. «Mundan burungi bo'lib o'tkan qurultoydag'i tortishish va masalalarning ko'bi butun turk urug'larining tili bir turli bo'ladi va yozilishlari ham bir qoida ostida yozilsun kabi (hozirdan qilinishi mumkin bo'lmayturg'on bosh qotirg'ichi) masalalarining ustida bo'lib kelganidan, ko'zga ko'rinarlik bir ish ishlanmay kelgan zdi. Zmdi mundan so'nggi bo'laturg'on qurultoy u qurultoylar kabi bo'lmag'usidir. Bunda yolg'izgina bir uymoqning o'ziga tegishli bo'lg'on shevasida va o'ziga tegishli sanalgan imlosida o'qib, yozishlari hamda shul imlo va tilni yalpi shul halqning o'ziga qabul ztdirish to'g'rilari ko'riladir. Buning uchun

o'lka qurultoyi chaqirilishi oldidan Toshkent shahrining o'zida bo'lg'on o'zbek halqlarig'a tegishli ztib birinchi dekabrda shahar kungresi chaqiriladir», g' deyiladi maqolada. Unda aytilishicha, shahar kongressiga ona tili o'qituvchilari, teatr, san'at hodimlari (cholg'uchilar va boshqalar) taklif ztiladi, ular qurultoyda ko'riladigan masalalarga tayyorgarlik hususida o'zaro kelishib olishlari kerak bo'ladi.

1921 yilning 1g'5 yanvarida Toshketda birinchi o'lka o'zbek tili va imlosi qurultoyi bo'lib o'tadi. Unda quyidagi masalalar ko'riladi:

1. Harf va imlo masalasi.
2. Sarf va nahv masalasi.
3. Sanoyi nafisa va adabiyot masalalari.
4. Maorif komissarligi yonida «Ilmiy hay'at» tuzish masalasi.
5. Har hil (galdan tashqari) masalalar.

Harf (alifbo) va imlo masalalari bo'yicha Fitrat, Ashurali Zohiriy va Botu (M.Hodiev) ma'ruzalari tinglanadi.

Abdurauf Fitrat o'z ma'ruzasida maktab masalasiga Nikolay zamonida ahamiyatsiz kichik bir masala sifatida qarab kelinganligi, Toshkent, Samarqand kabi katta shaharlarimizda ikkig'uch hil usulda jadid maktablari ochilgan bo'lsa ham, ularda «imlodan gapirmoq uchun etarli kuchlar...» bo'lmaganligi aytiladi, maktab masalasiga Turkiston Kengashlar Jumhuriyati paytida katta ahamiyat berila boshlanganligi, shu munosabat bilan imlo masalasi ham kun tartibiga qo'yila boshlanganligi, chunki maktab masalasining muvaffaqiyatli hal ztilishida imloning o'ziga yarasha o'rni borligi ta'kidlanadi, unda shunday deyiladi: «Butun millatlar yozuni o'qimog'och ma'noni onglay olmaylar. Ma'noni onglamoq uchun yozuni o'kiylar. Biz zsak ma'noni onglayolmasaq yozuni o'qiyolmaymiz. Tilimizdagi ... « ??? » , « ??? » kabi 39 zhtimolli so'zlarni yozib, o'quvchi bolalarimizning miyasini churutamiz. Turkcha so'zlarni yozganda to'rt «harakat» qavul qilgan zdik: « ? , ? , ? , ? ». Bunlarni haraka deb olg'on zkan «?? , ?? , ??? » so'zlarida harp qilibda ishlatamiz, butun harakani ham o'z o'rinlarida yoza bilmaymiz. « ? ?? ??? » deganda « ? ?? » zshitib, « ? ?? » yozamiz, « ????? » deganda, « ?? » zshitib, « ? » dan keyin haraka qo'ymaymiz. Uzun so'zning qisqasi: yozumiz qoidasiz, imlomiz buzuqdir. Zski yozumizda bu qadar qiyinliq, buzuqliqlar bor zkan, biz hukumatimizning maorif programmasidan boshqa millatlar qatorida foydalana olmaymiz, unlardan keyin qolamiz. Boshqalar bir yarim oyda savod chiqarsalar, biz yarim yilda chiqaramiz, boshqalar bir yarim

oyda butun sinp bolalarining savodini chiqarsalar, biz yarim yilda bir sinp bolalarining yuzdan zlliktasining ham savodini chiqara olmaymiz. Mana yangi imlochilarimizning mantiqi: bunlarni yangi imloga majbur qilg'on sabablar shulardir... Yangi imlochilarimiz huzuringizga chiqib, o'z asoslarini arz ztdilar hamda aytalarkim: zski imlo blan yohud zski imlosizliq blan savodsizliqni bitirish, blimni umumlashtirish mumkin zmasdir. Savodsizliqni bitirmak istasalar qoidali bo'lg'on asoslarimiz qabul ztilsin! Bundan boshqa yana bir masala bor. Harplarning shakllari to'g'risida. Bilasiz, ikki yil burun harplarimizdan har birisi to'rt shaklda ko'rsatila zdi : bosh harp, o'rta harp, so'ng harp, ayri harp.. O'tkan yil shul «Toshg'kent»da bo'lg'on o'qutg'uchilar qurultoyi bu to'rt shaklni ikiga tushurdi.

Bosh harp blan ayrim harpni qabul ztib, butun so'zlar shul iki shakl harplar blan yozilg'on deb, o'qutulsun ham yozilsun, dedi. Buning blan harplarimizning soni 150 dan 50 ga tushib qoldi... Yangi imlochilar sizga hozir taklip qilarlar harplarning bir shakldan bo'lmog'ini: ayrim harpni ham tashlab butun so'zlarni bosh harp (so'zning boshida yoziladigan harf – J.H.) blan yozayliq deyalar. Buni qabul ztsak, harplar bilan cho'zgilarimizning soni 29 ga tushub qolur, buning zsa matbaa va boshqa to'g'riyolarga poydali bo'luvi belgilidir».

Shundan so'ng ma'ruzachi yangi imlochilarning quyidagi takliflari borligini aytadi:

«1. Zski imlomiz buzuq, qoidasiz bo'lg'oni uchun maoripimizni bu imlo va yozu blan kengaytmak mumkin zmas. Maoripni kengaytmak va savodsizliqni bitirmak uchun imlomizni isloh ztmak lozimdir.

2. Olti cho'zgili imlo qabul ztilsin.

3. Tilimizdagi yot so'zlar ham shul olti cho'zgi blan yozilsin.

4. Har harp va har cho'zgining o'zig'a mahsus shakl bo'lsin.

5. Ust cho'zgilarini o'runli yozmoq uchun so'zlarning qolinlig'i, ingichkaligi (ga) z'tibor ztilsin. Tilimizdagi arap so'ziga ham shul to'rt modda qo'ldan kelganicha yuritilsin.

6. Harplarning shakli ikidan birga tushib, butun so'zlar bosh harp bilan yozilsun.

7. Tilimizga kirib qolg'on yot so'zlar turkcha harplar blan yozilsun».

Fitrat ma'ruzasi yuzasidan so'zga chiqqan Shahid Ahmad (Maorif komissari) yangi imlochilar taklifini ma'qullab, shunday deydi: «... Bizning yangi imlodan tilagimiz butun qora halqni tezdan o'qug'yozu tanitib, bilimli qilmoqdir. Biz bu

erda butun yangi imlo qabul qilmoq uchun yig'ilmadiq, bizga zndi imlomizni va harplarimizni boshqa qilish zmas, balki bor bo'lg'on harp va imlomizni tuzatish kerakdir».

Shahid Ahmad o'z so'zida harflarning to'rt shakldan bir shaklga keltirilishi harflar miqdorini kamaytirishini, bu hol o'z navbatida bosmahona va matbaa ishlarini osonlashtirishi hamda oz chiqim bilan tez ish ko'rish imkoniyatini yaratishi mumkinligini ham aytadi.

Shundan so'ng majlisda savolg'javob jarayoni bo'lib o'tadi. Unda Dovud, G'.Salohiddin va Ashurali Zohiriylar ishtirok ztadi.

Ashurali Zohiriy o'z nutqida Fitratning yot so'zlarni (arabcha, forsha o'zlashmalarni) ham o'z harflarimiz va o'z cho'zg'ilarimiz (6 cho'zg'i) bilan yozish kerak degan taklifiga z'tiroz bildiradi, bunday z'tirozini u shunday asoslashga harakat qiladi: «... biz yot so'zlarni o'z harp va cho'zgimiz bilan yozsoq biz zng yaqin turgan totorlardan ham uzoqlashg'on va musulmon olamidan ajrag'on bo'lamiz.

Agar biz yangi imlo bilan dars berishga odatlanib turganda chet erlarga (chunonchi, «Qashqar»ga) borsoq, onda muallimlik qilar bo'lsak, biz yozg'onni hech kim o'qiy olmaydir. Bu imloda yozu yozmoqchi bo'lsoq hech kim o'qiy olmaydir. Bu imloda yozu yozmoqchi bo'lsaq hech kim bilmaydir. Hozirg'a qadar tuzilgan panni va adabiy kitoblarni o'qiy olmaymiz. Shuning uchun bu to'g'rida mening pikrim: ajnabiy so'zlarni o'z harpi bilan yozayliq. Mayli, olorni o'z cho'zgimiz bilan ham yozayliq, lekin so'ngidan yana qavsayin orasida o'z yozuvi blan ko'rsatilsun».

Ashurali Zohiriyning bu fikri va taklifini unga ko'makchi tarzida so'zga chiqqan Bahriddin Aziziy ham ma'qullaydi.

Botu (M. Hodiev) mazkur masala bo'yicha uchinchi ma'ruzachi sifatida nutq so'zlaydi. O'z ma'ruzasida u shunday deydi: «Madaniyatda ortda qolg'on millat yozuvi ortda qolg'on millat demakdir... Zmdi men bu erda zski yoki o'rta imlochilar to'g'risida so'ylab ham turmayman, chunki u bo'lmag'ur bir narsa... Yangi imlochilarga kelsak, ularning tutgan yo'llari, maqsadlari o'tganda Toshkent imlo qo'nferensiyasida ko'rilgan zdi: Masalan: bosh harp bilan yozishni olsoq: buni yozmoq juda sekin bo'ladir. So'ngra cho'zgilarga kelsak, cho'zgilarni harplardan ayirmoq uchun qaysi bir belgilar ortdirilg'on, belgisiz ham harflarning ostida, ustida bo'lg'on nuqtalari o'zi kshini har vaqt adashtirib qiyin holg'o qoldiradir, mana shuning uchun butunlay hozirgi arab harplarini tashlab, ko'b

millatlar tomonidan qabul bo'lg'on lotin yozuvini tilimizdagi tovushlarg'a muvofiq bir holg'o kelturub qabul qilish kerakdir».

Saidali (Botuga ko'makchi ma'ruzachi):

«... Bu lotin harplarini yolg'iz nemislar yoki anglizlargina olg'on zmas, balki butun Ovrupa millatlari lotincha harpni qabul qilg'ondir, hatto dunyodagi butun madaniy millatlar, yopunlar, amriqolilar, hatto usmonli turklari lotin harflarini oladilar...

Siz qaysi bir doruhonadagi doru otlari, do'htirlarning doru so'rab yozg'on yozulari, riyoziyotda yuqoriroq darslarga o'tganda ishlatiladigan barcha yozular lotin haripi bilan bo'ladir, mana shuning uchun biz bu zski va yaramas harflarimizni (arab harflarini) tashlab, oning o'rniga lotin harplarini olaylik. Mana shul vaqt biz madaniy yashay olamiz, bo'lmasa yo'k!...».

Ko'rinib turibdiki, qurultoydagi ma'ruzachilar harflar va imlo hususida uch hil taklif berishgan. Bu uch taklifdan qaysi birini tanlash masalasi ovozga qo'yiladi. Ko'pchilik ovoz bilan amaldagi (arabcha) harflarni ayrim tuzatishlar bilan saqlab qolish haqida qaror qabul qilinadi, shundan so'ng Fitrat majlisga quyidagi takliflarni kiritadi:

«1. Imlomizni islohida harp ila cho'zgi ayrig'ayri yuritulsin.

2. Harplarimizning soni 23, cho'zgilar olti bo'lsin.

3. Yozuvlarimizning barchasi birgina shaklda (bosh harp bilan yozilsunlar).

4. Tilimiz orasiga kirib qolg'on yot so'zlar o'z harplarimiz bilan yozilsunlar».

Bu taklifning 2g'moddasiga Ashurali Zohiriy z'tiroz bildiradi: «Harplarimiz soni 24, cho'zgilar 5 bo'lsun», g' deydi u.

Bu masala ovozga qo'yish yo'li bilan hal ztiladi:

23 harf uchun 23 ovoz, 6 cho'zgi uchun 16 ovoz (7 ta qarshi) bilan Fitrat taklifi qabul qilinadi.

Qurultoy ishida quyidagi vakillar ishtirok ztgan:

№	Ismi g' sharifi	Qaysi shahardan	Qaysi o'rindan
---	-----------------	-----------------	----------------

1. A'loho'ja Mansurho'jaev Samarqand Maorif sho''basi
2. Qoriahror G'oyibnazar Samarqand Maorif sho''basi
3. Ma'ruf Mahmudiy Samarqand Maorif sho''basi
4. Ashurali Zohiriy Qo'qon Maorif sho''basi
5. Salohiddin Majidiy Qo'qon Maorif sho''basi
6. Nurulla Murodiy Kattaqo'rg'on Maorif sho''basi
7. Nurulla Sayfulla Kattaqo'ron Maorif sho''basi
8. Shukrulla Holmuhammad Mirzacho'l Maorif sho''basi
9. Bahriddin Aziziy O'ratepa Maorif sho''basi
10. Hayrulla Aliboy Ho'jand Maorif sho''basi
11. Mamad Amin Avaz Ho'jand Maorif sho''basi
12. Vadud Mahmud Jizzah Maorif sho''basi
13. Nizomiddin Ahmad Chorjo'y Maorif sho''basi
14. Shamsiddin Naymiy Andijon Maorif sho''basi
15. To'rahon Rahmonberdi Avliyoota Maorif shao''basi
16. Vahob Murod Avliyoota Maorif sho''basi
17. Abdusami' Qori Ziyaboy Toshkent (zski shahar) Maorif sho''basi
18. Akbarho'ja Qosimho'ja Toshkent (zski shahar) Maorif sho''basi
19. Saidullaqori Shomuhammad Toshkent (zski shahar o'qituvchilari uyushmasi) Maorif sho''basi
20. Nasrullaqori Qodiriy Toshkent (zski shahar o'ituvchilari uyushmasi) Maorif sho''basi
21. Miyon qozi Rahmon Boqiev Yangi shahar maorif sho''basi Maorif sho''basi
22. Nuriddin Karimiy Toshkent Imlo konferentsiyag'sidan vakil
23. Abdulla Avloniy Toshkent Imlo konferentsiyag'sidan vakil

- | | | | |
|-----|-------------------|----------|-----------------------------------|
| 24. | Abdulla Ahmadiy | Toshkent | Zski shahar rastasidan. |
| 25. | Hamid Sulaymon | Toshkent | Chig'atoy gurungi |
| 26. | Abdulg'ani Yoqub | Toshkent | Chig'atoy gurungi |
| 27. | Sanjar Siddiq | Toshkent | Chig'atoy gurungi |
| 28. | Shahid Ahmad | Toshkent | Maorif komissarg'ligi (dokladchi) |
| 29. | Tohir Fathulla | Toshkent | Maorif komissarg'ligi |
| 30. | Shokirjon Rahimiy | Toshkent | Shahar maorif sho''basi |
| 31. | Mannon Ramziy | Toshkent | Shahar maorif sho''basi. |

Qurultoyga mahsus chaqirilgan kishilar

- | № | Ismi g' sharifi | Qaysi shahardan | Qaysi o'rindan |
|-----|----------------------|-----------------|----------------|
| 1. | Murodho'ja Solihiy | Toshkent | |
| 2. | Fitrat | Toshkent | dokladchi |
| 3. | Zlbek | Toshkent | |
| 4. | Saidali Usmon | Toshkent | dokladchi |
| 5. | Abduqayum Ramazon | Toshkent | |
| 6. | Mahmud Maqsud | Toshkent | |
| 7. | Shorasul Zunnun | Toshkent | |
| 8. | Majid Qodiriy | Toshkent | |
| 9. | Sadriddin Ayniy | Samarqand | kelmadi |
| 10. | Hoji Mo'in Shukrulla | Samarqand | kelmadi. |
| 11. | Ashurali Zohiriy | Qo'qon | dokladchi. |
| 12. | Husanhon Mahzum | Andijon | kelmadi. |

1921 yil qurultoyidan so'ng alifbo va imlo masalalari matbuotda yana ancha vaqt muhokama qilib boriladi. Chunonchi, «Harfimiz» nomli maqolada bu haqda shunday deyiladi: «Arab tusidagi harfimiz islohotga muhtoj zmas, yana qaytarib aytaman, arab tusidagi harfimiz islohotga muhtoj zmas, balki otib tashlashgagina muhtojdir. Agar arab tusidagi harfimiz otib tashlanmasdan o'zini million martaba isloh qilsada bir tiyinlik foyda bera olmas».

1921 yilning 11 yanvarida chop ztilgan «Toshkent konferentsiyasida imlo masalasi» nomli maqolada ham astag'sekin lotin yozuviga o'tsak «yozuvimiz tartibga solinur, moturlanur, engillashur», g' degan fikr bildiriladi.

1921 yilning 27 yanvarida «Qizil bayroq» gazetasida «Til va imlo qurultoyi» nomli maqola chop ztiladi. Unda qurultoyning alifbo va imloga oid quyidagi qarori z'lon qilinadi:

1.O'zbekistonda ishlatiladurgan harflarning soni 23 ta bo'lib, shulardir: ? ? ? ? ?
? ? ? ? ? ? ? ? ? ? ? ? ? ? ? ? ? ?

2. Cho'zgilarning soni 6 bo'lib, ushbulardir:

iki ust cho'zgi: ? g' ?

iki ost cho'zgi: ? g' ?

iki o'tru: ? g' ?

3. Tilimizga kirib qolgan yot so'zlar o'zbek harf va cho'zgilari bilan yozilur.

4. Cho'zgi va harflarimiz ayrig'ayri shaklda bo'lur.

Harf va cho'zgilarimizning shakli ikidan birga (bosh harfga) tushurilur.

1921 yilning 8 fevralida M. Shermuhammadning «Alifbo masalasi» nomli maqolasi matbuotda z'lon qilinadi. Maqolada alifboning ilmg'fan taraqqiyotida tutgan o'rni hususida fikr yuritiladi, g'arbning bu kungi ihtirolari va buyuk taraqqiyoti ularning alifbolaridagi qulaylik va o'ng'aylik tufayli sodir bo'layotganligi, sharqning zsa bu qadar ma'rifatsizligi ularning alifbosidagi kamchiliklar sababli yuz berayotganligi haqida gapiriladi: «... bu kun g'arbda mingga bir savodsiz kishi yo'q zkan, sharqning ba'zi erlarida mingda bir savodli va o'qig'on kishi topolmaymiz... Bizning qo'lyozma hatlarimizga qarasangiz ilon, chayonlardan tortib, dunyoda bo'lg'on barcha narsalarning hammasining shaklini

topmoq mumkindir. Agar g'arbda bir kishi bizning alifboni o'rganmakchi bo'lsa, olti yil umrini sarf qilib yana tugal o'rgana olmaydir... Mening fikrim shudir: bilim tengsizligi bitmas zkan fasod va fitnalarga hotima berib bo'lmas. Sharq o'zining hozirgi noqis va etishsiz harflari blan qiyomatda ham g'arb bilan ilmda teng bo'la olmas,.. Biz halq va insoniyat tarafdori sharqni qutqarmoq istasak, noqis alifbomizni, zski shakl harflarimizni tashlab, yangi harflar qabul ztaylik...» deyiladi unda. Demak, maqola muallifi arab alifbosidan butunlay voz kechib, boshqa alifboga ko'chishni taklif qiladi, bu masalada Ilmiy hay'atdan yordam so'raydi.

1922 yilning 22 martida Shokirjon Rahimiyning «O'zbek imlosi to'g'risida asoslar» nomli maqolasi z'lon qilinadi. Maqola Turkiston Respublikasi o'zbek madaniyati va maorifi hodimlari qurultoyi munosabati bilan yozilgan bo'lib, shunday so'zlar bilan boshlanadi: «Har qaysi ulusning adabiyotining tugallashmasi shu ulusning til va yozuvining tartiblik va yo'sinlik bo'lishiga bog'liqdir. Tartibsiz va qoidasiz til yozu bo'yincha tuzilgan adabiyotning bir kun zmas bir kun bitishiga hech shakg'shubha yo'qdir. Til jon bo'lsa, yozu uning badanidir. Sog' bo'lmagan bir tanda jonning uzoq yashamog'i qiyindir. Bizning yozuvimiz kasal. Buning ilojiga tezdan kirishilmasa ish havplidir. Buning ilojiga kirishuvchi yana bizning o'zimiz – maorip ahillaridir...»

Shundan so'ng muallif bizning alifbomiz va yozuvimizdagi qiyinchiliklarga sabab bo'lgan omillar haqida gapirib, ularni bartaraf qilish yo'llari hususida fikr bildiradi, takliflar beradi.

1923 yilda ham alifbo va imlo masalalariga oid munozarag'bahslar davom ztadi. Maqolalarda birg'biriga zid fikrlar bildiriladi, demak, bu masalalar hususida izchil tugal bir qarorning shakllanishiga zrishilmaydi. Bunday vaziyatga munosabat bildirgan Ashurali Zohiriyning quyidagi gaplari bu jihatdan z'tiborga loyiqdir. U shunday degan zdi: «Imlo masalasida siz (S) lar qancha janjal qiling, o'z ideyangizni o'tkazmoqchi bo'ling, tipirching, shu «o'tkazamiz» deyishda muqobilingizni «muttaham» demoqdan va o'zingiz muttahamlilik qilmoqdan boshqani bilmaysiz, tutgan yo'lingizda o'z hatolaringiz bilan o'zingizning nodonligingizni va bu sohada tutgan yo'lingizning ham asossiz zkanligini o'zingiz isbot qilasiz...»

Shundan so'ng maqola muallifi alifbo va imloni isloh qilish masalasi Rusiyada, Turkiyada, Kavkazda, Tatariston matbuotida ko'tarilib kelinayotganligini, Turkistonda zsa bu masalada hoye rasmiyalar (« ?? » g' « o » lar) qo'yishdan boshqa hech narsaga zrishilmaganini, imlomiz Toshkentda boshqa, Samarqandda boshqa ko'rinishlarda ishlatilayotganligini aytib, «Biz shu hilda maymuncha

harakatlar (imlo yangitamiz va falonlar) bilan unchag'muncha bo'lib kelayotgan hatg'savodimiz va maktabimizni ham yo'qotdik», g' deydi.

Ashurali Zohiriy o'zining yana bir maqolasida alifbo va imloni tartibga solish ishlari keyingi vaqtlarda bir qadar susayib qolganligidan afsuslanadi; imlodagi boshboshdoqlikka chek qo'yish, umumturk qavmlari imlosining bir yo'lda, bir qoidada bo'lishiga zrishish kerakligini aytadi.

1923 yilning 9g'10 oktyabrida Buhoroda O'rta Osiyo o'zbeklarining alifbo va imlo masalalariga bag'ishlangan birinchi konferentsiyasi bo'lib o'tadi. Konferentsiya qaroriga ko'ra alifbodan ? , ? , ? , ? , ? , ? , ? , ? harflari chiqariladi, natijada alifbo quyidagi tarkibda tasdiqlanadi:

? ?

Konferentsiyada yangi alifbo bilan birga imlo qoidalari ham qabul qilinadi. Ular (alifbo va imlo) Turkiston Respublikasi Halq Maorifi Komissarligi tomonidan 1923 yilning 18 oktyabrida tasdiqanib, 1929g'1930 yillargacha (lotin o'zbek grafikasiga to'la o'tgunga qadar) amalda qo'llanib keladi. Bu yillar orasida alifbo harflari quyidagi variantlarda ishlatiladi: unli fonemalarni ifodalovchi harflar g' ? ?? (a , a) , ?? (i) , ?? (o ') , ?? (o) , ?? (y , u) , ? ?? (z) ; undosh fonemalarni ifodalovchi harflar g' ? (b) , ? (v) , ? (g) , ? (d) , ? (sirg'aluvchi j) , ? (dj) , ? (z) , ? ? (y) , ? ? (k) , ? (l) , ? (m) , ? (n) , ? (p) , ? (r) , ? (s) , ? (t) , ? (f) , ? (h) , ? (ch) , ? (sh) , ? (q) , ? (g ') , ? (h) , ? (h) , ? (ng) .

1924 yilning 11 aprelida Maorif Halq Komissarligida alifbo masalalariga bag'ishlangan mahsus majlis o'tkaziladi. Unda Moskvadan yuborilgan lotin alifbosi (turkiy halqlar uchun tavsiya ztilgan loyiha) muhokama qilinadi. Shu yilning o'zida E.D. Polivanov tomonidan lotin harflari asosida tuzilgan o'zbek alifbosining yana bir loyihasi muhokama uchun z'lon qilinadi. Loyiha tarkibi quyidagi 28 harfdan iborat zdi: undoshlarni ifodalovchi harflar – v, s, d, f, g, y, h, z, j, k, l, m, n, ? , p, q, r, s, S, t, x, Z; unlilarni ifodalovchi harflar ?, a, o, u, i, e.

Lotin harflari asosida tuzilgan o'zbek alifbosi uchun loyihalarning yuzaga kela boshlaganligi o'sha yillarda mamlakatimizdagi turkiy halqlarning yozuvlarini arab grafikasidan lotin grafikasiga ko'chirish harakatining bir qadar faollasha boshlaganligidan darak beradi: 1922 yilda Ozarbayjonda lotin grafikasiga asoslangan yangi turk alifbosining qabul ztilib, 1924 yilgacha arab alifbosi bilan parallel ishlatilganligi, 1924 yilda zsa uning (lotin grafikasidagi yangi turk alifbosining) Davlat alifbosi deb z'lon qilinganligi, shu yili Yangi turk alifbosi komiteti raisi Samad og'a Og'amali o'g'li boshchiligidagi mahsus delegatsiyaning

Toshkentda, Simferopolda, Orenburg, Ufa va Qozonda bo'lib, madaniyat va maorif hodimlari bilan til va alifbo masalalarini muhokama etganligi fikrimizning isbotidir. Darvoqe, ayni shu delegatsiyaning safardagi uchrashuvlari jarayonida mamlakatdagi barcha turkiy xalqlar vakillari ishtirokida butunittifoq qurultoyi chaqirish, til va alifbo muammolarini shu qurultoyda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir, degan hulosani yuzaga keladi. Bu hulosani keyinchalik Moskva va Leningrad turkshunoslari ham ma'qullashadi.

1925 yilning birinchi yarmida Maorif Komissarligining ilmiy markazi qoshidagi o'zbek qo'mitasi majlisi bo'lib o'tadi. Unda «Lotin alifbosi to'g'risida matbuot vositasi bilan muhoza o'chishga va umumiy fikrlar bilan tanishmoqqa qaror beriladi».

1925 yilning 29g'30 noyabrida Samarqandda til mutahassislari va o'zbekshunoslarning kengashi o'tkaziladi. Unda til va istiloh (termin) masalalari bo'yicha G'ozir Olim Yunusov, E.D.Polivanov ma'ruzalari tinglanadi. Kengashda quyidagi qaror qabul qilinadi: «Bugun ishlatilmoqda bo'lg'on imlarning etishmovchiliklariga qaramasdan aytish mumkinki, ko'p imlolaridan mukammaldir. Bu imlo etishmovchiliklarini bir imlo kengashi yig'ish bilan to'ldirish mumkindir. Shuning uchun boshqadan bir lotin harf va imlosi masalasini ko'tarish ortiqchadir». «Butun turk olamining ko'pchiligi tomonidan arab harflari asrlardan beri ishlatilib kelib, turklarning aksariyatining tarix va adabiyoti bilan bog'langanligini z'hiborga olib, biz turklar uchun arab harflarini olishni muvofiq topamiz».

1926 yilning 3 yanvarida Bokuda Butunittifoq turkologiya qurultoyi oldidan tashkiliy komissiya yig'ilishi (plenumi) bo'lib o'tadi. Bu plenumda qurultoyning kun tartibi (ko'riladigan masalalar va ma'ruzalalar) belgilanadi. Bunday masalalar qatorida umumiy imlo (ma'ruzalalar: O. Sharof, Peshkovskiy, Jirkov), turk tillarining imlosi (Olimjon Ibrohimov, Navshiravonov, Farhod Og'azoda), tilni o'rganish va texnika nuqtai nazaridan alifbo tuzilishi (ma'ruzalalar: prof. N.F. Yakovlev va prof. Jirkov), turk millatlari alifbosining islohoti (ma'ruzalalar: Muhammadzoda, Olimjon Sharof, Nazir To'raqulov, Tahsil Umar, Berdiev va Mushtariy) kabi masalalar bor edi.

1926 yilning 26 fevral – 6 mart kunlari Bokuda turkologlarning Butunittifoq qurultoyi bo'lib o'tadi. Qurultoyda sobiq ittifoqdagi turkiy Respublikalar va viloyatlardan, shuningdek turkiy bo'lmagan boshqa respublikalardan kelgan 131 vakil ishtirok etadi, qurultoyning 17 ta yig'ilishida 38 ta ma'ruza tinglanadi: N.F. Yakovlev (Rossiya), L.G.Jirkov (Rossiya), J.Mahmudzoda (Ozarbayjon), Olimjon Sharof (Tatariston), Nazir To'raqulov (O'zbekiston), U.D.Aliev (Ozarbayjon), B.Berdiev (Turkmaniston) va boshqlarning ma'ruzalari shular jumlasidandir.

Qurultoyning arab va rus grafikalariga asoslangan alifbolarda ish ko'rayotgan turkiy halqlarning yozuvlarini lotinlashtirilgan alifbolarga ko'chirish masalasiga bag'ishlangan yig'ilishlari ancha tortishuvli vaziyatda o'tadi: Qirg'iziston, Dog'iston, Shimoliy Kavkaz, Turkmaniston vakillari lotinlashtirish taklifini ma'qullashadi, ammo Tatariston vakillari isloh qilingan arab yozuvida qolish istagini bildirishadi: ularning fikricha, arab alifbosi tabiat va iqtisodiyot qonunlariga muvofiq shakllantirilgandir, bu alifbo she'r yozishni zndigina mashq qilayotgan yosh shoirlar uchun, o'qishni zndigina o'rganayotgan yosh bolalar uchun juda qulaydir, rus va lotin harflarida yozilgan kitoblarni ko'p o'qish zsa ko'zoynak taqishga majbur qiladi. Tatariston vakili Olimjon Sharof tomonidan aytilgan bu gaplar qurultoy ishtirokchilarining jiddiy z'tiroziga sabab bo'ladi. Shu masala bo'yicha so'zga chiqqan O'zbekiston vakili Bekjon Rahmon zsa arab madaniyati, arab harflari va umuman arab ta'siri natijasida «O'rta Osiyo halqlarining umumiy madaniyat ishlarida boshqa madaniy halqlardan necha yuz yillar keyinga qolg'onliklarini, yangi oyoqqa bosib keladurg'on yosh o'zbek madaniyatining baynalhalq madaniyatga yaqinlashish maqsadila u zski ta'sirlardan ozod bo'lishqa tayyor zkanligini» aytib, O'zbekiston vakillari nomidan yangi turk (lotin) alifbosiga o'tish taklifini ma'qullaydi.

Dog'iston, Shimoliy Kavkaz, Turkmaniston, Boshqirdiston, Qirg'izistondan so'zga chiqqan vakillar ham yangi turk (lotin) harflariga o'tishni ma'qul topadilar.

Qurultoyda ko'pchilik ovoz bilan (tarafdorlar – 101 ta, qarshilar – 7 ta) quyidagi qaror qabul qilinadi:

1. Qurultoy yangi turk (lotin) alifbosining arab alifbosidan, shuningdek isloh qilingan arab alifbosidan ham ustunligini va tehnik jihatdan afzalliklarini, bu alifboning joriy ztilishi benihoya katta madaniyg'tarihiy va progressiv ahamiyatga molik bo'lishini qayd ztgani holda, uni amalga kiritish, shu bilan bog'liq chorag'tadbirlarni belgilash ishlari har bir respublika va halq uchun ihtiyoriydir deb hisoblaydi.

2. Qurultoy Ozarbayjonda, shuningdek SSSR ning ayrim respublika va viloyatlarida (Yoqutiston, Qirziston, Ingushetiya, Qorachay g' Cherkessiya, Kabardin, Bolqor, Osetiya va Chechenistonda) yangi alifboning qabul qilinganligini, Boshqirdiston, Turkiston, Adigey–Cherkessiyada yangi alifboga o'tish jarayoni ommaviy tus olganligini katta ijobiy harakat sifatida baholaydi, bu sohada amalga oshirilgan ishlarni qizg'in tabriklaydi, ayni paytda qolgan turkiyg'tatar va boshqa halqlarni yangi alifbega o'tishda Ozarbayjonda, boshqa Respublikalarda to'plangan tajribalardan unumli foydalanishga da'vat ztadi.

Qurultoyda bu muhim ishni davlat miqyosida muvofiqlashtirib turuvchi yagona markaz tashkil qilish kerakligi qayd ztiladi va bunday markaz tuzilgunga qadar shu sohaga oid ishlarni boshqarib borish Ozarbayjon Yangi turk alifbosi komitetiga (bu Komitet 1922 yilning 21 iyulida Bokuda tashkil topgan) va uning raisi Samad Og'amali o'g'li zimmasiga yuklanadi.

Boku qurultoyidan so'ng barcha turkiy respublikalarda, shu jumladan O'zbekistonda ham yozuvni lotin grafikasiga ko'chirish harakati jadallashadi. Chunonchi, «Maorif va o'qitg'uchi» jurnalida chiqqan bir maqolada bu haqda shunday deyiladi: «Nima uchun arabdan lotinga o'tish kerak? Shu so'roqqa qisqa qilib javob beramiz:

1. Arab alifbosi turk tilidagi tovushlarning shaklini tamomila bera olmaydir.
2. Arab alifbosi texnika tomonidan lotindan quyida turadir. Arabda nuqtalar, alomatlar, bosh, o'rta va so'nggi harflar bordir. Lotin zsa bulardan uzoqdir...
3. Arab alifbosi o'qitish, o'rganish ishida lotindan ortda turgani, texnika tomonidan buzuqligi ustiga erlilashtirish ishida ham to'sqinliq qiladir. Masalan: yozu mashinalari, stenografiya, telegraf va shunga o'hshashlar...».

1926 yilning 28 martida Qo'qondagi «Dehqon uyi»da (ilgarigi honning hashamatli uyida) Boku qurultoyi to'g'risida Ashurali Zohiriy ma'ruza o'qiydi. Ma'ruzachi qurultoyning ochilish tartibi, riyosatga kimlar saylangani, qurultoyda ishtirok ztgan taniqli mutahassislar hususida ma'lumot bergach, shunday deydi: «Qurultoyda hammasi bo'lib 17 masala ko'rildi. Bularning ichida zng muhim bo'lg'on masalalar alifbo ham atamalar masalasi zdi: Men bu kungi ma'ruzamda ko'brak ana shu masalalarga to'htalib o'taman». Shundan so'ng Ashurali Zohiriy qurultoyda yangi turk (lotin) alifbosi tarafdorlari bilan arab alifbosi tarafdorlari o'rtasida yuz bergan tortishuvlar, bunda lotin alifbosiga o'tish taklifi ustun kelganligi haqida, lotin alifbosining «ta'lim jihatdan bo'lsin, texnika jihatdan bo'lsin ming martaba qulayroq, engilroq, osonroq» jihatlarini hususida gapirib, qurultoyning to'g'ri qaror qabul qilganligini aytadi.

1926 yilning 19g'21 mayida Samarqandda o'zbek ziyolilarining alifbo muammolariga bag'ishlangan ilmiy kengashi bo'lib o'tadi va kengash qaroriga binoan yangi alifbo loyihasi tuziladi, bu loyiha O'zbekiston Maorif halq komissarligi tomonidan tasdiqlanadi. Loyihada ko'rsatilgan 33 ta harfdan 10 tasi (A, a, ?, e, o, ?, u, u, , i harflari) unli tovushlarni ifodalash uchun belgilangan, ruscha G harfi «G'» tovushi uchun, Z harfi zsa «Sh» tovushi uchun, lotincha Z harfi «j» tovush uchun, ? harfi zsa «ng» tovushi uchun olingan. Bundan tashqari, loyihaga apostraf belgisi ham kiritilgan. Loyihada bosh harflar berilmagan, shu

sababli A harfining kuchsiz lablagan «a?» unlisini ifodalashi («ota» so'zining Ata deb yozilishi) nazarda tutilgan; a harfiga orqa qator lablanmagan «a» unlisini (qalam so'zida), ? harfiga old qator «a» ni (k?tt? so'zida), harfiga orqa qator , yo'g'on «q» unlisini (qz so'zida), i harfiga old qator, tor, ingichka «i»ni (kir co'zida), e harfiga o'rta keng lablanmagan «z» unlisini (sen so'zida), u harfiga zsa «uv» diftongini (su – «suv», qu – «quv» so'zlarida) ifodalash vazifasi yuklangan.

Samarqand kengashi qarorlarini amalga kiritish haqida shu kengash tashkilotchilaridan biri bo'lgan A. Fitrat quyidagi gaplarni aytgan zdi: «Kengash majlisining loyihasi shu kunlarda Maorif Komissarligi kollegiyasida qarab, qabul ztilgandan keyin, komissarlar sho'rosida qaraladir. Onda ham qabul ztilgach, qonuniy alifbo bo'lib qoladir. Ondan keyin oning tatbiq choralariga kirishiladir. Tatbiq uchun ko'rilgusi choralar mana shulardir: O'zbekiston Markaziy Ijroya Qo'mitasi yonida Markaziy «Lotin harflari qo'mitasi» tuziladir.

Maorif Komissarligi zsa bu qo'mitaning ilmiy jihatlariga qaraydi. Viloyatlarimizda lotin qo'mitalari tuziladi. Lotin harflari bilan alifbo kitoblari yoziladir. Shu kunlarda ochilgan ta'limg'tarbiya kurslarimizda yangi o'zbek alifbosini o'rgatmak uchun mahsus soatlar belgilanadir. Jurnal, gazetalarimizda yangi o'zbek harflariga o'rin beriladir. Qabul ztilgan harflarimiz arab harflari bilan barobar tatbiq zttirilib, O'zbekistonda yaqindagina tarqatiladir».

1926 yilning 10 iyunida O'zbekiston Ijroiya Sho'rolar Jumhuriyati Kengashining 1g'chaqiriq 4g'sessiyasi bo'lib o'tadi. Unda yangi alifboga o'tishni rejali ravishda amalga oshirish maqsadida Ijroiya Kengash huzurida O'zbekiston Yangi Alifbe Markaziy Qo'mitasini tashkil ztish to'g'risida qaror qabul qilinadi, shu qarorga ko'ra Yangi Alifbe Markaziy Qo'mitasining 44 kishidan iborat quyidagi tarkibi ham belgilanadi: Y. Ohunboboev (Rais), R. Inomov (Rais muovini), Ho'jaev Mo'min (Rais muovini), A. Ikromov, Fayzulla Ho'jaev, Po'latov, A.Mavlonbekov, Rizaev, Inoyatov, Nazarov, Burhonov, Nazirqulov, Burnashev, Alimov, Zlbek, Hamidhonov, Majidov, Odiliy, Qoriev, Karimov, Rahmatullaev, Abdujabborov, Ho'ja Mo'min, Tojiev, Ramziy, Karimov, Azimov, Ohunov, Zohirov, M. Alimov, Holmurodov, Sadriy, Mavlonbekov, Shirinov, Ro'ziboev, Dilovarhonov, Masaidov, Boltaev, Bekjon Rahmonov, Fitrat, D. Alimov, A. Qodiriy, Runbaev.

1926 yilning 11 avgustida Samarqandda O'zbekiston Ilmiy Markazining mahsus majlisi chaqiriladi. Unda lotin grafikasiga asoslanib tuzilgan alifboning yangi loyihasi ko'riladi. Loyihada unlilar uchun 12 ta shakl olingan bo'lib, shulardan 10 tasi juft, 2 tasi toq unlilarni ifodalash kerak zdi: a – a , o – o , u – u , i – i , iu –

iu (juft unlilar uchun. Bular yo'g'onlik va ingichkalik belgilari bilan farqlanadi); e va uv (zshsiz, toq tovushlar uchun).

Undoshlar uchun belgilangan harflarning 18 tasi dastlabki loyihada qanday bo'lgan bo'lsa, shunday qoldirilgan, qolgan 5 tasi o'zgartirilgan: j («j» uchun), u («y» uchun), ?l («g» uchun), S («sh» uchun).

1926 yilning 27g'29 avgustida Samarqandda ilmiy kengash bo'lib o'tadi. Unda shu yilning may oyida bo'lgan kengash va 11 avgustdagi ilmiy markaz loyihalari atroflicha tekshirilib, quyidagi qaror qabul qilinadi:

1. Oddiy cho'zgilardan to'qquz cho'zg'u qabul qilinib, ular uchun ushbu shakllar belgilansin:

Qolgan tovush (. . .) murakkab sanalib, murakkab shakl belgilansin:

Misollar: suv , qjma, kijm?k .

2. Somat tovushlardan 23 tovush olinib, ular uchun tubandagi shakllar belgilansin:

' g' apostrof chet so'zlarning

aytilishini saqlash uchun mana shu turush (') qabul

qilindi. Masalan:

m?s'ul , m?'lum .

1926 yil sentyabrida imlo qoidalari ham qabul qilinadi. Unda shunday deyiladi: «Imloda iki usul blan foydalanish mumkin: savtiy (funetiq) ham sarfiy (ztimuluyi) usul. Savtiy usulda asos zshitolishicha yozish bo'lib, sarfiy usulda asos – sarfiy qo'shmachadirlar. Bizning tilimizda bir qancha shevalar bo'lg'onidan ta'limg'tarbiya ishlarida engillik uchun har iki usuldan ham foydalanishga qaror berildi.

So'zning tomiri zshitilganicha yoziladir. Qo'shmachalar sarfiy usul blan yoziladir. Bularning haqqida izohat va misollar quyida yozilgandir...» Shundan so'ng fe'l va ot turkumlaridan bir necha so'z shakllarining yozilishi namuna tarzida beriladi.

1926 yilning 16 oktyabrida O'zbekiston Sho'rolar jumhuriyati Markaziy Qo'mitasi o'zining 88g'sonli qarori bilan Yangi Alifbo Markaziy va Mahalliy qo'mitalari nizomini tasdiqlaydi. Bu nizomda Markaziy va mahalliy qo'mitalar strukturasining

huquq va vazifalari belgilanadi. Ulardan ayrimlarini keltirib o'tamiz (ular Arhivdagi ruscha matndan aynan ko'chirildi):

1. . .

2. . .

3. Na Tsentralnqy Komitet po vvedeniyu novog'uzbekskego alfavita vozлагаetsya vqrabotat pravilnqy metod postepennogo (no skoreyshego) vvedeniya v UzSSR ukazannogo alfavita i prakticheskoe osuo'estvlenie ztogo vvedeniya.

4. Dlya osuo'estvleniya vozlojennoy na nego zadachi, Tsentralnqy Komitet imeet pravo:

a) prinimat i provodit v jizn, s utverjdeniya Prezidiuma TsIK Sovetov UzSSR, resheniya, kasayuo'iesya vvedeniya novogo alfavita (latinskogo alfavita);

b) . . .

v) . . .

g) . . .

d) . . .

j) . . .

z) posqlat svoih delegatov na s'ezdq i konferentsii po voprosu o latinizatsii tyurkskego alfavita, kak na vsesoyuznqe, tak i na sozqvaemqe otdeInqmi Respublikami Soyuza SSR.

5. Dlya vqpolneniya tekuo'ey rabotq i rukovodstva vsej deyatelnostyu Tsentralnogo Komiteta obrazuetsya prezidium...

6. . . .

7. . . .

8. . . .

9. . . .

10. . .

11. . .

12. Tsentralnyy Komitet v otnoshenii nauchnoy storonq svoey deyatelnosti podderjivaet neposredstvennuyu svyaz s Narodnym Komissariatom Prosveo'eniya Uz SSR.

13. . . .

14. . . .

15. . .

16. . .

17. Tsentralnyy Komitet likvidiruetsya lish posle polnogo vvedeniya v Uz SSR novog'uzbekskogo (latinskogo) alfavita.

16 oktyabrya 1926 g № 88.

1926 yilning ohirrog'ida Otajon Hoshimning yangi alifboga O'tish harakatini quvvatlab yozgan maqolasi chiqadi. Maqolada arab alifbosidan voz kechib, lotin alifbosini qabul qilish turkg'tatar halqlarining milliy madaniyati va maorifini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilayotgan jiddiy tadbir zkanligi, bu alifbo tilning o'qish va yozish shakllarini ancha engillatishi mumkinligi aytiladi, shundan so'ng arab alifbosida qolish tarafdorlariga z'tiroz bildiriladi. Ma'lumki, arabchilar lotin alifbosiga o'tish dekret bilan amalga oshirilyapti, dekret chiqarilmaganda arab alifbosi o'z o'rnini saqlab qolardi, degan fikrda zdilar. Otajon Hoshim bu fikrga qarshi shunday deydi: «Yo'q, bunday zmas. Arabchadan lotinchaga o'tish turmush va turmushda to'qnashilg'on ko'b tajribaviy masalalar orqasida bunday keng ravishda o'rtog'a otildi. Bugun bo'lmasa zrtaga, zrtaga bo'lmasa indinga lotincha masalasining chiqishi lozim zdi. Butun ishchig'dehqon ommasini tezlik bilan savodli qilish, bundan keyin turkg'totor millatlari orasida matbaa va matbuot ishlarini taraqqiy ztdirish va davlat apparatini milliy tilda qo'yishni zsingizga olsangiz lotinchaga o'tish masalasining bunday bir katta harakat shakliga kirishi o'zidan o'zi ma'lum bo'lib qoladi...», g' deydi muallif va ayni shu omillar Markaziy Ijroqo'm qoshidagi o'zbek lotin alifbosi Markaziy qo'mitasining ilmiy Markaz bilan birga 29 avgustda O'zbekiston miqyosida konferentsiya chaqirishiga sabab bo'lganligini, bu konferentsiyada may oyida muhokamaga qo'yilgan loyiha ko'rib chiqilganligi, bu loyiha bir qadar tuzatilib, so'ng qabul qilinganligi aytiladi va shu alifboning quyidagi jadvali mazkur maqola tarkibida beriladi.

1927 yilning boshlarida Maorif Komissarligi tomonidan so'nggi 2 yil ichida amalga oshirilgan ishlar shu komissarlik kollegiyasida ko'riladi, unda 1925g'1927

yillarda bu sohada ancha yutuqlar qo'lga kiritilganligi, ammo bir qator kamchiliklarga ham yo'l qo'yilganligi aytilgach, bu kamchiliklarni bartaraf qilish yo'lida amalga oshirilishi lozim bo'lgan chorag'tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi. Rejada quyidagilar nazarda tutiladi:

1. Yangi o'zbek alifbe kitobi tuzish va nashr etish.
2. Imlo tartiblari tuzish.
3. Rahbarlar tayyorlash uchun markaziy kurs tashkil qilish va mahallalarda lotinchilar to'garaklarini tuzish.
4. O'zbekiston Jumhuriyatining barcha o'rta maktablarida lotinlashtirilgan alifboni o'rgatish darslarining rejalarini ishlab chiqish.
5. Viloyat yangi alifbo qo'mitalariga ishlash uchun tegishli qo'llanma berib, yaqin orada ularni tartibga solish.

1927 yilning 28g'29 mayida Samarqandda O'zbek, Qozoq va Qirg'iz jumhuriyatlari vakillarining birlashgan kengashi bo'lib o'tadi, unda O'rta Osiyo turkiy halqlari uchun umumiy bo'lgan quyidagi alifbo ishlab chiqiladi:

Plenumdan so'ng uning natijalari haqida Otajon Hoshimning mahsus maqolasi z'lon qilinadi. Unda bu plenumning ahamiyati katta zkanligi, turkiy halqlar alifbolarini birlashtirish shu halqlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, ularning madaniyatini rivojlantirish uchun xizmat qilishi aytiladi.

Shundan so'ng turkiy halqlarning alifbolarini birlashtirish asoslari hususida gapiriladi. Unda shunday deyiladi:

«Butun turk halqlari alifbolarini lotin asosida birlashtirish birinchi martaba qo'yilab turg'an masala bo'lg'on uchun – turk alifbolarini birlashtirib mushtarak alifbe tuzish mumkinmi? degan savol har bir kishi oldig'a kelib turadi.

g' Mushtarak alifbo tuzish mumkin. Buning uchun iki asos (printsip) bor: birinchisi savtiy, ikinchisi sarfiy asosdir. Savtiy asos shundan iboratki, mushtarak har bir tovush uchun bir hil shakl qabul qilinadida, turk halqlarining harflari shaklan birlashadi. Masalan, ? , ? , ? , ? va boshqa harflar turk halqlari uchun mushtarak zsa, bularning har biri uchun umumiy bir shakl qabul qilinadida, bunday mushtarak harflar shaklan birlashib ketaveradi. Sarfiy asos shundan iboratdirki, bir shakl turli tovushlar uchun olinadi. Turk halqlarig'a mushtarak bo'lg'on tovushlarg'a shakl olish masalasida bu asosning kerakligi yo'q. U faqat mushtarak bo'lmog'on tovushlardagina chiqadi. Masalan,

turkmanlarda « ? » harfining yo'q bo'ldig'i holda « ? » harfi, « ? » harfining yo'q bo'ldig'i holda ? harfi bordir. Mana bunday hollarda yangi shakllar qabul qilmasliq uchun bir oz bo'lsa ham sarfiy asosdan foydalanishga to'g'ri keladi. Sarfiy asosni ham qonun qilsak, ya'ni sarfiy asosdan bir oz bo'lsa ham foydalanishga yo'l qo'ysaq, yuqorida ko'rsatilgan misol tezdan hal bo'ladi, chunki ko'b turk halqlari uchun mushtarak bo'lg'on «? » harfiga olingan shaklni « ? » ga, « ? » ga olingan shaklni « ? » ga bera olamiz. Shunday qilg'on vaqtda turkmanlarda hafa bo'lmaydi; «bozor» (?) so'zimizni turkmanlar «bodzor» g' «????? » deb o'qiyberadilar. Agar sarfiy asosdan ham foydalanishga yo'l qo'ymasak, bunday masalalarni hal qilish qiyin, hal qilinsa ham to'g'ri bo'lmaydi, chunki ancha shakl ortdirilg'on bo'ladi. Shu sababdan turk alifbolarini birlashtirib mushtarak alifbo tuzishda faqat savtiy yoki sarfiy asos bilangina chegaralanish hato; mumkin bo'lar zkan (yuqoridagi misollar mumkin zkanni ko'rsatadi), iki asosdan ham foydalanish kerak. Mana shuning uchun Boku plenumi ham masalani dialektikacha qo'yib, asosan savtiy asosni qabul qilib, mumkin bo'lg'on choqda sarfiy asosdan ham foydalanishig'a yo'l qo'ydi».

Maqolada singarmonizm qonuniyati barcha turkiy tillarga hos bo'lganligi uchun mushtarak turk alifbosida bu qonuniyat ham hisobga olinganligi aytilib, o'zbek tilini va lotin alifbosini tuzishda ham shunga amal qilish kerakligi, chunki singarmonizmli shevalar bizda ko'pchilikni tashkil ztishi ta'kidlanadi.

Maqolada aytilishicha, Boku plenumida bosma va yozma, katta (bosh) va kichik harflar qabul qilingan bo'lsag'da, bu masalada har bir jumhuriyatning o'zi qaror qabul qilish huquqiga zgaligi nazarda tutilgan. Shu asosda biz katta va kichik harflarni (ikki hil shaklni) qabul qilmaymiz, degan fikr bildiriladi.

Maqola muallifi Boku plenumida ko'rilgan masalalardan yana biri harflarga shakl tanlash masalasi bo'lganligini aytar zkan, bu masalada quyidagi printsiplarga asoslanish lozim topilganligini uqtiradi:

1. Shakllar birg'biriga o'hshamasligi kerak.
2. Shakllar ustida, ostida belgilar bo'lmasin; bo'lsa ham tez yozmoqqa va shakllarning birg'biriga bog'lanishiga zarar bermasin.
3. Shakl murakkab bo'lmasin.
4. Shakllar matbaada qiyinchilik tug'dirmaydigan bo'lsin.
5. Lotin harflarini mumkin qadar lotincha bo'lgan ifodasi bilan olishga harakat qilish kerak.

Shundan so'ng maqolada Boku plenumi tavsiya ztgan mushtarak alifboning quyidagi jadvali (bir qadar o'zgartirilgan ko'rinishi) keltiriladi:

1928 yilning yanvarida Toshkentda Butunittifoq Yangi Alifbe Markaziy Qo'mitasining ikkinchi plenumi bo'lib o'tadi. Plenumda yangi (lotinlashtirilgan) alifboga o'tish yo'lida uchrab turgan to'siqlarni engib, alifbo islohotini tezlashtirish kerakligi, bu zamon talabi zkanligi alohida ta'kidlanadi. Unda O'zbekiston, Tatariston, Turkmaniston, Abhaziya, Yoqutiya va boshqa joylarda bo'layotgan ishlar haqida ham hisobot tinglanadi va tegishli ko'rsatmalar beriladi: har bir respublika yoki viloyatda yashayotgan turli millat vakillari orasida ham lotinlashtirish ishlarini kuchaytirish haqida qaror qabul qilinadi; bu qarorlarning amalda bajarilishi matbuotda keng yoritib boriladi.

1928 yilning 17 yanvarida O'zbekiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi hay'ati rayosatining majlisi bo'lib o'tadi, unda Yangi Alifbo Markaziy Qo'mitasining yangi tarkibi belgilanadi. Bu tarkibga Y. Ohunboboev (rais), Ramz (rais muovini), Tojiev, Ohundiy, Ikromov, Fayzulla Ho'jaev, Inoyatov, Botu, Hoshimov, Qoriev Bosit, Yusupov, Nazirqulov, Shirinov, Hoji Mo'min, Zlbek, Vayis Rahimiy, Olimjon Orif, Ismoil Sadriy, Bekjon Rahmonov, Fitrat, G'ozil Olim, Qayum Ramazon, Ahmadjan Yoqubov, Devonov, G'oziev Hamid, Sami' Qosimov, Shodieva, Iso Ho'jaev, Niyozova, Nabi Qodirov, Olimjonov, Otaullaev, Homidov, Nizomboev, Tohirbekov, Abdulla Ho'jaev, Hojimatov, Umarov, Rahimboev, Husan Karimiy, Abdujabborov Uyg'ur kiritiladi. Yangi Alifbo Qo'mitasi rayosatining hay'ati Ohunboboev, Ramz, Tojiev, Ohundiy, Botu, M. Shirinov va Orif Olimjonovdan tarkib topadi.

1928 yilning 31 yanvarida O'zbekiston Markaziy Ijroqo'mi Hay'ati Rayosatining navbatdagi majlisi bo'lib, unda Yangi Alifbe Markaziy Qo'mitasining shu yil 17 yanvarda belgilangan tarkibi qisman o'zgartiriladi. Majlis Markaziy Ijroqo'mning yaqinda bo'ladigan sessiyasi tasdig'iga quyidagi a'zolardan iborat tarkibni tavsiya ztish haqida qaror qabul qiladi:

- | | |
|---------------------|----------------------|
| 1. Ohunboboev | 25. Lutfulla Olimiy |
| 2. Ramziy | 26. Qosim Sorokin |
| 3. Tojiev | 27. Ahmadjon Yoqubiy |
| 4. Ohunov | 28. Devonov |
| 5. Ikromov | 29. Hamid Qoziev |
| 6. Fayzulla Ho'jaev | 30. Birigin |

- | | |
|---------------------|---------------------|
| 7. Inoyatiy | 31. Sami' Qozimov |
| 8. Botu | 32. Shodieva |
| 9. Hoshimov | 33. Ho'jaev |
| 10. Qori – Bosit | 34. Niyozova |
| 11. Yusupov | 35. Robiya Nosirova |
| 12. Nazirqulov | 36. Nabi Qodirov |
| 13. Shirinov | 37. Otaullaev |
| 14. Hoji Mo'in | 38. Hamidov |
| 15. Zlbek | 39. Nizomboev |
| 16. Vayis Rahimiy | 40. Saidjonov |
| 17. Orif Olimjonov | 41. Tohir Bekov |
| 18. Ismoil Sadriy | 42. Abdulla Ho'jaev |
| 19. Bekjon Rahmonov | 43. Hojimatov |
| 20. Fitrat | 44. Omarov |
| 21. G'ozzi Olim | 45. Rahnaboev |
| 22. Qayum Ramazon | 46. Qulijonov |
| 23. Shokir Sulaymon | 47. Husain Karimiy. |
| 24. Abdulla Rahmon | |

1928 yilning fevral oyida «Alanga» jurnalida Botuning «Til va imlo masalasi ustida bir necha so'z» nomli maqolasi chop ztiladi. Maqolada mehnatkashlarni bilimli qilish, madaniyatga zrishtirish yo'lida jiddiy ishlar qilinganligi va qilinayotganligi ta'kidlanib, bu yo'ldagi muhim masalalardan biri alifbo va imlo muammolari zkanligi, bu sohada ma'lum ishlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, hali anchagina kamchiliklar borligi aytiladi. «Biz mushtarak alifbe qabul qildik, to'qqiz cho'zg'i oldik, biroq janjal butunlay echilgani yo'q. To'qqiz cho'zg'ining tilimiz uchun ozligini da'vo qiluvchilar bo'lgani kabi, bularning ko'pligini isbot ztuvchilar ham bor. Albatta, bu masalani «Mushtarak alifbedan

chetga chiqish yaramaydi» nuqtai nazaridan hal ztishga to'g'ri kelmaydi. Ozarbayjon ham mushtarak alifbeni butunlay qabul qilishni rad qilgan. O'zbek tilining hususiyati, taraqqiyoti o'zbek alifbosida bir qancha yangiliklarni to'ldirishni talab qilar zkan, mutaassiblik qilish yaramaydi. Biz, modomiki, yangi g' o'zbek alifbosi, birinchidan, mehnatkashlarning savodsizligini tez bitirishga xizmat qiladi va shunday bo'lishi kerak der zkanmiz, amalda ham shu tomon borishimiz kerak. Bir necha yillik tajribamiz hozirgi to'qqiz cho'zg'i omma uchun so'ng darajada og'irlik keltirishini ko'rsatdi. Shunday bo'lgandan keyin omma bilan hisoblashishga to'g'ri keladi. «Osori atiqa jonkuyarlari» uchun to'qqiz cho'zg'ini kamaytirish masalasi juda zararli bo'lar, biroq «osori atiqa» deb taraqqiyot yo'lini to'sish qat'iyan yaramaydi», g' deydi muallif o'z maqolasida.

Ko'rinib turibdiki, Botu barcha turkiy halqlar uchun «mushtarak (birlashgan) alifbo va imlo» yaratish yo'lidan borishni ma'qullamagan, bu yo'l alifbo va imloning keng omma uchun og'irlik qilishini ta'kidlab, to'qqiz unlili vokalizm asosida alifbo va imlo yaratishga ham z'tiroz bildirgan.

1928 yilning 7 martida O'zbekiston Respublikasi 2g'chaqiriq Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Oliy Kengashining 3g'sessiyasi Yangi o'zbek Alifbosi Markaziy Qo'mitasining hisobotini va 5 yillik ish rejasi haqidagi ahborotini tinglaydi hamda o'z ishini amalga oshirishning yangi tadbirlarini ishlab chiqish lozimligini ta'kidlaydi.

Sessiya Majlisining bayonnomasida (uning 6g'moddasida) qayd ztilishicha, O'zbekiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (TsIK UzSSR) yangi o'zbek alifbosini Davlat alifbosi deb tan oladi va bu haqda mahsus qaror qabul qilib, uni (qarorni) matbuotda z'lon qilishni Markaziy Ijroiya Qo'mita Prezidiumidan so'raydi.

1928 yilning bahorida «Maorif va o'qitg'uchi» jurnalining 3g'sonida Fitratning «Imlo konferentsiyasi munosabati bilan» nomli maqolasi chop ztiladi. Maqola muallifi «... imlo masalasi shakldang'shaklga kirag'kira yangi alifbega o'tishdan boshqa bir chora bo'lmog'oniga hamani ishondirdi. Yangi alifbega o'tdik. Bu yo'lda har tomondan jiddiy sur'atda tirishilmakda. Tilimizdagi tovush ohangiga (qalinliq, ingichkalikka) tayanib yangi alifbomiz uchun to'qqiz savt qabul qildik. Bizning tilga yot tillarning ta'sirlari bo'lmog'on tillardan bizning tilga ko'b so'zlar o'tib qolmog'on bo'lsa zdi, to'qquz savt olish blan tovush ohangi masalasini qat'iy suratda hal qilg'on bo'lar zdik. Holbuki, masala bunday zmas...», g' deydi va bunga asos qilib chetdan o'zlashtirilgan so'zlar orasida tovush ohangiga tobe bo'lmagan hususiyat, diyonat, parvona, balo, lola kabi yot so'zlarning borligini ko'rsatadi, o'z tilimizdagi «bo'ldi», «o'qitdi», «buni» so'zlarini «bo'ldu», «o'qutdu», «bunu» deb yozish kerak bo'ladimi deb savol

beradi, shundan kelib chiqib, tilimizdagi lab ohangi va tovush ohangiga tobe bo'lmagan so'zlarni aniq belgilab chiqishni taklif etadi, til va imlodagi mustasnlarning ana shunday aniq chegarasini belgilamaslik imlomizda anarhiyaga olib kelishi, har kimning o'z istagi bilan so'zga qoida berishi, istamagan so'zini zsa mustasnoga chiqarib qo'yishi mumkinligini aytadi.

Yangi o'zbek alifbosi Davlat alifbosi deb z'lon qilingandan so'ng uni amalga kiritish bo'yicha chorag'tadbirlar belgilab chiqiladi: nashriyot ishlarini bu yozuvga ko'chirish, yangi yozuvda o'quv adabiyotlarini nashr qilish, mahalliy halq ichida tushuntirish ishlarini olib borish, o'quv kurslari tashkil qilish, bu ishga kerakli miqdorda mablag' ajratish kabi ishlar rejalashtiriladi va amalga oshirila boshlaydi.

1928 yilning iyunida O'zbekiston Yangi Alifbe Markazqo'mining birinchi plenumi bo'lib o'tadi. Unda shu yilning 7 martida O'zbekiston Respublikasi 2g'chaqiriq Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Oliy Kengashining 3g'sessiyasida tasdiqlangan «O'zbekiston Yangi Alifbesi Markaziy qo'mitasining 5 yillik ish rejasi»ga birmuncha o'zgartishlar kiritiladi, lotin yozuviga to'la o'tish muddati zsa 1931 yilning ohiri deb belgilanadi. Bu muddatning yillar bo'yicha taqsimoti rejalashtiriladi (yangi alifboni maktabga kiritish, o'qituvchilar tayyorlash, yangi alifboda darsliklar, qo'llanmalar nashr qilish, ish yurgizishni yangi yozuvga ko'chirish muddatlari belgilanadi), shu asosda tegishli qarorlar qabul qilinadi.

1928 yilda matbuotda Shokir Sulaymonning «Yangi alifbe Markazqo'mi birinchi plenumining yakunlari» nomli maqolasi z'lon qilinadi. Maqolada Mazkur plenum qarorlarining amaliy ahamiyati katta bo'lganligi, hususan, shu plenumda «arab alifbosiga tantanali fотиha o'qilib, yangi alifboni turmushga tatbiq etish masalasiga kirishilganligi» aytiladi.

1928 yilning 11 avgustida O'zbekiston Respublikasining Markaziy Ijroiya Qo'mitasi shu yilning 7 martida bo'lib o'tgan sessiya qarorini amalga oshirish maqsadida 123g'sonli mahsus qaror qabul qiladi. Qarorga binoan yangi (lotinlashtirilgan) o'zbek alifbosi Davlat alifbosi deb z'lon qilinadi hamda bu alifboga astag'sekin (bosqichmag'bosqich) o'tish tartibining yangi alifbo Markaziy Qo'mitasi rejasiga muvofiq amalga oshirilishi lozimligi ko'rsatiladi. Bu qarorda yangi alifbega to'la o'tishni 1932 yilning ohirigacha yakunlash nazarda tutiladi.

1928 yilning kuzida Butunittifoq yangi Alifbe Markaziy Qo'mitasining sarkotibi Qamchinbekning shu Qo'mita ishi yuzasidan kichik bir hisobot mazmunidagi maqolasi chop etiladi. Unda Butunittifoq yangi Alifbe Qo'mitasi faoliyatiga oid ma'lumotlar bayoni beriladi. Maqolaning alifbelarni birlashtirish ishiga oid qismida quyidagilar aytiladi:

1. Butun turkg'tatar halqlari Markaziy Qo'mitasining 1g'plenumida birlashgan turk alifbesi qabul qilingan. Barcha turkg'tatar jumhuriyatlari deyarli shu alifbe asosida ishlarini davom zttirishgan (faqat O'rta Osiyo bosh harflarnigina qabul ztmayin ishlab kelmoqda).

2. Turkg'tatar halqlari shevalarida bo'lmagan sadolar (tovushlar) uchun etishmagan alomatlar o'rnida boshqa halqlar umum alifbega qo'shimcha alomatlar kiritib, lotinlashtirilgan alifbega ko'chmoqdalar.

3. Umum turkg'tatar halqlari qabul qilgan alifbega ko'chmaganlar ham ozarbayjon va kavkazorti jumhuriyatlarida bo'lgan turklardir. 2g'plenum qaroriga muvofiq Markaziy Qo'mita Ozarbayjon va Kavkazorti turklarini ham umumiy birlashtirilgan alifbega ko'chirish va qabul qildirish yo'lida qat'iy chorag'tadbirlar ko'rmoqda. Ozarbayjonni birlashgan alifbega ko'chirish masalasi bo'yicha Bokuda davlat komissiyasi ish olib bormoqda. Har holda birlashgan alifbega Ozarbayjon jumhuriyatini ko'chirish ishi ham uzoqqa cho'zilmasa kerak.

1928 yilning 1 dekabrda Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 209g'sonli qarori bilan shu yilning 11 avgustida qabul qilingan 123g'sonli qaroriga qo'shimcha ravishda 12g'modda kiritiladi. Unda mazkur qarorning 9g'moddasida nazarda tutilgan talablarni (barcha davlat muassasalari va korhonlari, jamoat va kooperativ tashkilotlari hamda alohida shahslarning uch oy ichida peshlavlhalardagi yozuvlarni yangi lotin o'zbek yoki rus alfavitiga ko'chirish majburiyatini) o'z vaqtida bajarmagan shahslarga nisbatan jazo choralari ko'rilishi aytiladi.

1928 yil dekabrda O'zbekiston Yangi Alifbe Marakaziy Qo'mitasining II plenumi bo'lib o'tadi. Unda I plenumdan so'ng amalga oshirilgan ishlar hisoboti va kelgusi vazifalar, shuningdek til va imlo konferentsiyasini chaqirish masalalari ko'riladi. Hisobot ma'ruzasida quyidagi ma'lumotlar beriladi:

«1. O'zbekistonda yangi alifbega ko'chish ishlari hozirgi kunda keng sur'atda amalga oshirilib, yangi alifbe davlat alifbesi bo'lishi barobarida uning mehnatkash omma o'rtasida o'ziga keng o'rin olg'onini o'zbek Yangi Alifbe Markaziy Qo'mitasining II plenumi ayricha ta'kidlab o'tadi.

Madaniy shiorni borliqqa chiqarishda oldimizda turg'on (savodsizliqni bitirish, umumiy ta'lim kabi) vazifalarni bajarishda yangi alifbening katta engillik keltirayotgani amaliy ishlar bilan isbot qilinmoqdadir.

2. Markaziy Qo'mitaning birinchi plenumidan ushbu vaqtgacha katta o'zgarishlar bo'lg'oni aytilib, 2g'plenum tubandagi muvaffaqiyatlarni ko'rsatib o'tadi:

a) turli qurslar, to'garaklar vositasi bilan ko'pchilik mehnatkashlar orasida yangi alifbeda savodliq bo'lg'onlarning soni ko'b miqdorda ortgan...

b) nashriyot ishlari ham anchagina yahshi yo'lga qo'yilg'on...

v) . . .

g) hamma maktablarda jiddiy ravishda darslar yangi alifbe asosida o'tilmoqda, maktablarning tamomila yangi alifbega ko'chish muddati qisqartirilgan (3 yildan 2 yilga tushirilgan)...

d) o'zbekchalashtirish yo'lida ovrupolilarg'a ochilg'on o'zbek tili o'rganish qurslari uchun mahsus o'qish kitoblari bostirilmoqda».

Hisobotda qayd ztilgan ma'lumotlar orasida idora ishlarining yangi alifboga ko'chirilishi ancha jadallashganligi (blanka, shtamp, pechat va boshqalarning yangi alifboga ko'chirilganligi), mahallalarda tashviqot ishlarining olib borilayotganligi, shunga qaramay hali ancha kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi haqidagi habarlar ham bor. Plenum ana shu kamchiliklarni tugatishga qaratilgan chorag'tadbirlar rejasini z'lon qiladi va quyidagi qarorga keladi:

«Til va imlo konferentsiyasi chaqirish to'g'risidagi o'rtoq Botuning ma'ruzasini zshitgandan so'ng O'zbek Yangi Alifbe Markaziy Qo'mitasining 2g'plenumi shu qarorni chiqaradi:

1. Jumhuriyatimizdagi iqtisodiy, madaniy yuksalishning sur'ati oldimizga nazariy va amaliy ahamiyati zo'r bo'lg'on bir qancha masalalarni qo'yib, tez hal ztishni keskin talab qiladi...

2. O'zbek adabiy tili masalasi bir qancha vaqtlardan beri maydonda ko'ndalang turg'on bo'lsa ham, bu yo'lda ba'zi ishlar qiling'on bo'lsa ham, asosiy ko'b ishlar haligacha butunlay bajarilgan zmas. Bu albatta hozirgi davrimiz ruhiga muvofiq bo'lmog'on holdir. Mehnatkashlar ommasidagi madaniy yuksalish o'zbek adabiy tili masalalaridagi qaramag'qarshiliklarni, chatoqliklarni tez hal qilishni keskin talab qiladi, bularning to'g'ri hal ztilishi bo'lsa chuqur ilmiy tadqiq va tahlil qilishni olding'a suradi.

3. O'zbek adabiy tili masalasi hal bo'lmag'uncha yangi imlo masalasining ham asosli suratda hal bo'lishi mumkin zmas. Buni bir qancha yilg'i o'z tajribalarimiz ham ochiq ko'rsatdilar. Imlomizdagi chatoqliklarning tezdin yo'qotilishi juda zarurdir.

4. Istiloh masalasiga kelsak, bunda ham juda zo'r etishmovchiliklarimiz bor...

5. O'zbek adabiy tili, imlosi va istiloh masalalarini ilmiy yo'lda hal qilish uchun o'zbek yangi alifbe Markaziy qo'mitasi va Maorif qo'misarlari tomonidan boshlang'on harakatni plenum juda vaqtli va muhim deb biladi.

Til va imlo konferentsiyasi uchun tuzulgan reja butunlay to'g'ri topib, amalga oshirishga ilmiy kuchlarni chaqiradi».

1928 yilning o'rtalarida Yangi Turk Alifbesi Markaziy Qo'mitasi raisi Samad og'a Og'amali o'g'lining va O'zbekiston Markaziy Ijroqo'mi raisi Yo'ldosh Ohunboboevning maqolalari matbuotda z'lon qilinadi. Ularda o'zbek halqining yangi alifboni hayotga tatbiq etishda z'rishgan yutuqlari katta madaniy ma'rifiy g'alaba bo'lganligi alohida ta'kidlanadi.

1928 yilning 18g'23 dekabrda Qozon shahrida (Tataristonda) Ittifoq Yangi Alifbe Markaziy Qo'mitasining III plenumi bo'lib o'tadi. Unda quyidagi masalalar ko'riladi:

1. Butunittifoq Yangi Alifbe Markaziy Qo'mitasi Prezidiumining ma'ruzasi.
2. Qo'mita qoshidagi ilmiy sho'ro ma'ruzasi.
3. Tatariston yangi Alifbe qo'mitasi ma'ruzasi.
4. Ozarbayjon Yangi Alifbe qo'mitasi ma'ruzasi.
5. Qozog'iston Yangi Alifbe qo'mitasi ma'ruzasi.
6. O'zbek Yangi Alifbe qo'mitasi ma'ruzasi.
7. Navbatdagi masalalar.

Birinchi masala yuzasidan o'qilgan ma'ruzada shu vaqtgacha qo'lga kiritilgan yutuqlar va yo'l qo'yilgan kamchiliklar sanab ko'rsatiladi:

Yutuqlar:

1. Milliy jumhuriyatlarning ko'pchiligida yangi alifbo «Davlat alifbosi» deb z'lon qilindi.
2. Shu kungacha alifbosi (yozuvi) bo'lmagan halqlarda yangi alifbo qabul qilindi.
3. Savodsizlikni bitirish maktablaridagi 1g'2g'bosqich maktablarida, shuningdek o'rta va oliy maktablarda o'qishning yangi alifboga ko'chirilishi davom etmoqda.
4. Qator adabiyotlar yangi alifboda tayyorlanib, nashr ettirildi.
5. Yangi alifboga asoslangan yozuvlarimizning imlo masalalari hal etila boshlandi.

6. Mahalliy byudjetlarga yangi alifbo ishlarini kuchaytirish uchun zarur bo'lgan sarmoyalar berila boshlandi.

Kamchiliklar

1) Yangi alifbo harakatini kuchaytirish ishlarida Ittifoq qo'mitasi va uning ilmiy sho'rosi mahalliy qo'mitalar bilan etarli darajada jonli aloqada bo'la olmadi;

2) Yangi alifboda o'qita oladigan kadrlar ham etarli zmas...

3g'plenumda yangi alifboga ko'chish ishlari O'zbekistonda ancha yahshi yo'lga qo'yilganligi alohida ta'kidlanadi.

Plenum barcha jumhuriyatlarda alifboga to'la o'tish ishlarini 1930 yilning ohirigacha yakunlash vazifasini qo'yadi.

1929 yilning 29 yanvarida Zlbekning «Til, atama va imlo bahslari (Til g' imlomiz ustida. Cho'zg'ilar masalasi)» nomli maqolasi matbuotda z'lon qilinadi. O'sha yillarda o'zbek tili unlilarining miqdori va sifat belgilari masalasi ancha tortishuv'bahslarga sabab bo'lib kelayotgan zdi. «Chig'atoy gurungi» a'zolari unlilarni 6 ta deb qarab, shu 6 unli uchun alifboda 6 ta harfg'belgi qo'llashni taklif qilishgan bo'lsa, 1926 yilning may oyida Samarqandda o'tkazilgan ilmiy kengash unlilar uchun 10 ta harf belgilaydi; shu yilning 11 avgustida O'zbekiston Ilmiy Markazi tomonidan o'tkazilgan yig'ilishda zsa o'zbek tili unlilarining kontrast juftliklari bor deb qaraladi, shu asosda unlilar uchun belgilangan harflar miqdori 12 taga etkaziladi. (a – a , o – o , u – u , i – i , iy – iy – juft unlilar uchun; e va uv – toq unlilar uchun). Masalaning bunday hal qilinishiga prof. E.D. Polivanov z'tiroz bildiradi: u o'zbek adabiy tili vokalizmini Toshkent shevasiga asoslangan degan pozitsiyaga tayanib, unlilarni 6 ta deb hisoblaydi. Alifbo va imloning to'qqiz unlili vokalizm tizimiga asoslanishi g'oyasiga Botu ham z'tiroz bildiradi. Zlbekning yuqorida nomi tilga olingan maqolasi ana shu vaziyat taqozosi bilan yozilgan zdi. Unda muallif shunday deydi: «6 cho'zg'ining o'zbek tiliga etarli javob bera olmasligi oldinroq sezilmasag'da, so'nggi choqlarda, ayniqsa yangi alifbega ko'chish oldida ochiq sezila boshlag'on zdi. Faqat u choqdagi yangi alifbega ko'chish oldidag'i cho'zg'i janjali 9 ustida zmas, 6 ustida bo'lib kelganidan, to yangi alifbega ko'chmagancha bu to'g'risida so'z ochish og'ir zdi. Harf illatchilarining shovqini hali bosilmag'on bir davrda 6 dan 9 ga ko'chish tugil, shu 6 ning o'zini saqlab qolish katta muvaffaqiyat zdi.

Mana shuning uchunda 1926g'nchi yilg'acha 9 cho'zg'i ustida og'iz ochguchilar juda oz ko'rindi, to'g'risi, bu masala ustida ortiqcha bosh qotirilmadi.

1926g'nchi yil fevral oyida Ozarbayjonda chaqirilgan turkaluglarning qurultoyi yangi alifbe masalasi to'g'risida qarorlar qabul ztdi va alifbeni barcha turk jumhuriyatlarida qabul ztishni orzu qilindi. Shundan so'ng bizning O'zbekistonda ham bu to'g'risida jiddiy tashabbuslar boshlandi. Zng so'ng Uznarkomprosning harakati bilan may oyida Samarqandda yangi alifbening 1g'nchi to'ng'ich kengashi o'tkazildi. Bu kengashga O'zbekistonning har eridan tilg' imlo bilarmonlari chaqirildi. Kengash yangi alifbe loyihasini ishlab chiqish ila birga cho'zg'ilarining miqdorini ham belgilab ketdi. May kengashining zng muhim ishi, shubhasiz, o'zbek tilining hususiyatin ko'zda tutib, uning cho'zg'ilarin 6 tadan 9 ga mindirishi zdi. Kengashning ko'rsatkan cho'zg'ilari quyidagilar bo'lib, bular hali ham ishlatilmakdalar:

- 1) ust cho'zg'ilar: a , ? g' qar , k?l .
- 2) o'rta cho'zg'ilar: o , ? , u , u g' qol , k?l , qul , kul.
- 3) ost cho'zg'ilar: e , , i g' kel , qz , til .

Yuqoridagi 9 cho'zg'ini qaling'ingichkalikka bo'lganimizda o, u , , a qalin so'zlarda ishlatila turg'on cho'zg'ilar, e, i, y, ?, ? ingichka so'zlarda iste'mol qilina turg'on cho'zg'ilar deyiladi.

Demak, bu yo'l bilan tilimizdagi so'zlarning qanday yozilishi to'g'risida bir talay yangiliklar ishlandi, desak yanglishmaymiz...»

Shundan so'ng Zlbek o'z maqolasida 9 cho'zg'iga qarshi bo'lgan prof. E.O.Polivanov va Botuni «tilimizning hususiyatidan etarli habari bo'lmag'onlar...» deb tanqid qiladi: «Qisqasi, Toshkent shevasi o'zbekning adabiy tili rolini o'ynay olmaydir. Cho'zg'ining ko'payishi sizga qancha og'irliq qilsa, buning uchun taajjub ztish ortiqchadir. Chunki «ko'rmagan erning chuquri ko'b» bo'lishi mumkin...», g' deydi u maqola ohirida.

Maqolada Zlbekning fonema va uning ottenkalari (variatsiyalari)ni qorishtirganligi ko'zga yaqqol tashlanadi; «Biz bu kun so'zning zshitilishidagi tovushlarga to'la javob berarlik cho'zg'iga zga zmasmiz. Masalan: qara so'zidagi 1—«a» cho'zg'isi bilan 2g'nchi «a» cho'zg'isi orasida ochiq ayirma bo'lg'oni holda buning ikisinida bir shakl bilan yozamiz, holbuki, bundagi tovushlar ayrig'ayri bo'lib, birinchisi to'g'ri «a» o'qilg'onda, 2g'nchisi kana degandagi «a» bilan qara so'zidagi birinchi «a» o'rtasida bo'lg'on bir tovushni beradir», g' deydi u va har bir tovush (ya'ni ottenka) uchun alohidag'alo-hida shakl belgilanishi kerakligini aytadi.

Zlbekning bu fikri va g'oyalari uning 1929 yil 30 yanvarda z'lon qilingan maqolasida ham takrorlanadi. Maqolaning «Tilg'implomiz ustida» deb nomlangan ikkinchi qismida Zlbek singarmonizm ko'p kishilarni cho'chitgan, ba'zi bir kimsalarning kulgi va so'kish to'rvalarining yorilishiga sabab bo'lg'on bo'lsada, aslida u tilimizning butunligini saqlash uchun elim va tilimizning ko'rkini oshirish uchun bezak vazifasini bajarayotganligi aytiladi, qalinlik va ingichkalik ohangi zsa tilimizning joni deb baholanadi. Shundan kelib chiqib, u yuz protsent saqlanishi kerak degan taklif beriladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, o'zbek adabiy tili vokalizmi (unlilar tizimi) va ularning alifbodagi ifoda shakllari bo'lgan harflar miqdori masalasidagi tortishuvg'bahslar bir necha yil davom ztgan bo'lsada, o'zining mantiqiy nihoyasiga etmay kelayotir. Ayni shu vaziyat 1929 yilning 13 mayida bo'lib o'tgan O'zbekiston Yangi Alifbe Qo'mitasining 3g'plenumida ham adabiy til, istiloh va imlo masalalari ustida bahs yuritilishiga sabab bo'ladi, unda bu masalaning yaqinda chaqiriladigan Respublika tilg'imlo konferentsiyasida mahsus ko'rib chiqilishi rejalashtiriladi.

1929 yilning 15g'23 mayida Samarqandda Respublika tilg'imlo konferentsiyasi bo'lib o'tadi. Unda asosan 3 ta masala – adabiy til, istiloh (termin) va imlo masalalari ko'riladi. Konferentsiya singarmonizmli qishloq shevalarining hususiyatini, shuningdek o'zbek tilining boshqa turkiy tillar bilan uyg'unligini ta'minlash zaruratini hisobga olib, adabiy tilning 9 unliga asoslanishini, shunga muvofiq alifboda ham unli tovushlar uchun 9 ta harf bo'lishini ma'qul deb topadi, hamda shu me'yorlarga tayanib tuzilgan imlo qoidalari loyihasini tasdiqlaydi.

Imlo qoidalarida ham, alifboda bo'lganidek, singarmonizmli shevalar hususiyatiga alohida o'rin beriladi: til garmoniyasidan kelib chiqib, o'zak va qo'shimchalarning ikki hil ko'rinishda –“ g'mz ”/ “ –miz ” , “ –gan ” / “ g'o?|an ” , “ g'm?k ” / “ –maq ” kabi shakllarda yozilishi, ayrim unlilarning talaffuzda va yozuvda tushib qolishi (o°?|l g' o°?|lm , qorn – qorn ... kabi) qoidalashtiriladi.

Mazkur konferentsiya natijalaridan yana biri shu bo'ldiki, unda alifboga bosh harflar qo'shildi, harflarning alifbodagi tartibi belgilandi. Alifboga bosh harflarni qo'shish masalasi ancha tortishuvlarga sabab bo'ldi: bir guruh mutahassislar (Qayum Ramazon, Orif Ayyub, Sattorov va boshqalar) bir tovush uchun ikki shaklning qabul qilinishi ta'limg'tarbiyaga salbiy ta'sir qiladi, matbaadagi kassalar miqdorining oshishi zsa bosmahona ishlarini qiyinlashtiradi, degan sabablarga ko'ra alifboga bosh harflarning kiritilishiga qarshilik qildilar. Ikkinchi guruh mutahassislar (Fitrat, Abdulhay Ayubiy va boshqalar) bosh harflarning qabul qilinishi ta'limg'tarbiyaga hech zarar keltirmasligini, aksincha, savod chiqarishga

ijobiy ta'sir ztishi mumkinligini, buni Ovrupodagi yozuv tizimlari amalda isbotlab turganligini aytishadi. Shu ikkinchi g'oya konferentsiyada ustun kelib, alifboga bosh harflar kiritiladi, natijada alifbo quyidagi tartib va tarkibda tasdiqlanadi:

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	4
“Imlo muammolari” tanlov fanining predmeti, maqsadi, vazifalari	6
Hozirgi oʻzbek adabiy tili taraqqiyotining ilk bosqichida (HH asrning birinchi choragida) alifbo va imlo muammolari	6
1930 – 1940 yillarda alifbo va imlo mummlari	68
1940 – 1995 yillarda alifbo va imlo muammolari.....	155
Rus va lotin alifbolariga asoslangan oʻzbek yozuv larining qiyosiy tavsifi.....	155
Grafika	156
Har ikki yozuv grafik tizimlarining qiyosiy tavsifi	168
Orfografiya.....	172
Imlo qoidalari.....	181
Har ikki yozuvning imlo qoidalaridagi tafovutlar.....	182
Adabiyotlar.....	190

